

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”  
Boshlang‘ich ta’lim va jismoniy  
madaniyat fakulteti dekani  
prof. B.S. Abdullayeva  
“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2014-yil

**«Boshlang‘ich ta’lim va sport, tarbiyaviy ish» ta’lim yo‘nalishi**

Mavzu: **Boshlang‘ich sinf darslarining takomillashtirishga integratsion va innovatsion yondoshuv**

**BITIRUV MALAKAVIY ISH**

**Bajaruvchi:** IV bosqich “402” guruh talabasi:  
Tursinova Gulyor Otajonovna  
**Ilmiy rahbar:** “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi  
va tarbiyaviy ishlar metodikasi”  
kafedrasи, professori, p.f.d.  
J.G. Yo’ldoshev

“Himoyaga tavsiya etilsin”  
“Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi va  
tarbiyaviy ishlar metodikasi”  
kafedrasи mudiri p.f.n. dotsent  
X.R.Sanaqulov \_\_\_\_\_  
“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2014-yil

**Toshkent 2014**

## **MUNDARIJA**

### **KIRISH**

**I-bob.Boshlang‘ich sinflarda integratsiya va innovatsion darslarini joriy qilishning nazariy asoslari.**

1.1 An’anaviy darslar tarixidan.

1.2.Ta’lim jarayonida pedagogik innovatsion usullarni qo‘llash va samaradorligini oshirish omili sifatida.

#### **1-bob bo‘yicha xulosa**

**II-bob. Boshlang‘ich sinf darslarining takomillashtirishga integratsion va innovatsion yondoshuv.**

2.1.Boshlang‘ich sinfda darslarini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.

2.2.Boshlang‘ich sinflarning o‘quv faoliyatini integratsiyalash ta’lim samaradorligi omili sifatida.

#### **2-bob bo‘yicha xulosa**

**III-bob. Boshlang‘ich sinf darslarini integratsiya va innovatsion tizimi bo‘yicha metodik tavsiyalar.**

3.1. Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan va innovatsion darslardan namunalar.

Umumiy xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbliji:** O‘zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo‘lidagi bosh g‘oyasi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot borpo etishdir. O‘zbekiston mustaqilligi tufayli Vatanga e’tiqod, milliy munosabat madaniyati xalqimizning barcha orzu intilishlarida, amaliy faoliyatida va yorug‘ kelajagida yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda.

Yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo‘lib yetishishga sharoit tug‘dirmay turib, biz respublikamiz xalq xo‘jaligini, sanoat ishlab chiqarish sohalarni tubdan o‘zgartira olmaymiz.Yana bir narsani biz hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim: iste’dodli yoshlarga sharoit yaratishdir.

O‘tgan yillarimizga, o‘tgan yo‘llarimizga nazar tashlab, ularni sarhisob qilsak, mustaqilligimiz sharofatini yanada chuqurroq anglaymiz. Biz ta’limda butunlay yangilanish, yangi jarayonga tom ma’noda o‘tish va unga moslashish davrini boshimizdan kechirmoqdamiz. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” bizga eski usullardan voz kechib ta’limning xar bir qirrasigacha qayta qurish imkonini bergen bo‘lsa” 2004-2009 yillarda Maktab ta’limni rivojlantirish Davlat umummiliy dasturi” esa qo‘lga kiritilgan imkoniylatlarni: takomillashgan Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari, davlat talablari yangi o‘quv darsliklarini har tomonlama zamon talablariga mos jixozlangan maktablarda, zamonaviy o‘quv xonalarida amaliyotga joriy etish imkoniylarlarni keng ochib berdi.

Davlatimiz istiqboli bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan jamiyat qurish sohasidagi ishlarining samaradorligini yuqori malakali, yuksak ma’naviyatli rivojlangan mamlakatlar darajasida raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash, yosh avlodni shakllantirish muammosi bilan ishlab chiqilib Oliy majlisning IX-sessiyasida qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash”, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Maxkamasining umumiy o‘rta ta’lim, akademik

litseylari va kasb-xunar kollejlarini tashkil etish xaqidagi va boshqa qarorlari ana shu maqsadlari ro'yobga chiqarishga qaratilgan.

Bu xujjatlarda kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimiga erishilgan yutuqlar bilan bir qator mavjud kamchilik va muammolar ham ko'rsatilgan jumladan maktablar o'quv yurtlaridan ta'lim jarayonining o'zidagi va o'qitish uslubiyotidagi kamchiliklar oqibatida o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanmay qolayotganligi, umumiyoq o'rta ta'limning amaliy yo'nalmaganligi, kasbga yo'nalghanlik darajasini baxolash tizimida ob'ektivlik va tezkorlikni ta'minlanmayotganligi, pedagoglarning katta qismi yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganligi, bilim va kasb saviyasi pastligi shular jumlasidandir. Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimidagi o'quv tarbiya ishlari sohasidagi muammolarni izchillik bilan bosqichma-bosqich hal etish yo'llari va vositalari yuqorida tilga olingan davlat xujjatlarida belgilab berilgan.

Hozirgi kunda umum ta'lim maktablarida mamlakatimiz xalq xo'jaligi uchun malakali ishchi kadrlar tayyorlashda dunyo mamlakatlari ta'lim-tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyatiga ega. Interfaol ta'lim yutuqlarni amaliyatga tadbiq etishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri sanaladi.

O'quv-uslubiy adabiyotlar majmualarni, yangi interfaol metodlarini texnologiyalarni yaratish va amaliyatga joriy etish, bir tomonidan davlat va jamoat muassasalari, ta'lim va fan o'qituvchilar, tadqiqotchilar tomonidan katta ishlarni bajarishni ta'lim-tarbiya, interfaol ta'lim sohasidagi ta'lim jarayonini ishlab chiqish va ilmiy tajriba sinovlardan o'tkazish ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishni taqazo etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimi xodimlari, pedagog o'qituvchilarning zamonaviy ta'lim texnologiyalari mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lim jarayonida tashkil etishda nisbatan ijodiy yondoshuvning qaror topishi xar tomonlama rivojlangan ma'naviy-barkamol yoshlarni tarbiyalab ularni raqobatbardosh, yetuk mutaxasislar bo'lib yetishishiga zamin yaratdi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi amaliyotida interfaol ta’limlaridan tabora kengroq foydalanilmoqda.

Bugungi kun talabidan kelib chiqqan xolda boshlang‘ich sinflarda interfaol metod asosida “Atrofimizdagi olam” predmetini o‘rganish jarayoni va uni samaradorligini tashkil etish bo‘yicha ilmiy-metodik va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish nihoyatda dolzarb masaladir.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: Innovasion pedagogika, pedagogik texnologiyalarning yutuqlarini amaliyotga tadbiq etishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. O‘zbekistonda N.Azizzo‘jaeva, J.Yo‘ldoshev, A.Aliqulov, N.Do‘stanov, A.Gomish, R.Ishmuxammedov, M.Ochilov, N.Saidaxmedov, B.Farberman, O‘.Tolipov va boshqalar. MDH davltlarida jumladan Rossiyada, A.Atutov, V.Bespal’ko, Yu.Babanskiy, T.Raboy, M.Klarin va boshqalar. Xorijiy davlatlarda esa Djeni Still, G.Dayana, Kert Meredis, B. Inxeldel, Charloz Templ, D.Kluster, J..Gimans va boshqalar, N.Azizzo‘jaeva o‘z tadqiqotlaridan pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni ilmiy-nazariy asoslariga hamda o‘qitishning zamonaviy muammolarini ochib berishga alohida etibor qaratgan.

R.Ishmuxammedov Innovasion texnologiyalarn qo‘llagan xolda o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan mashg‘ulotlardan ba’zilarini o‘tkazilish metodikasi, darsga kirish va uni taxlil qilish texnikasi xamda akademik litsey va umumta’lim mакtablarida o‘tkaziladigan turli ritual, tadbirlarni o‘tkazishga qaratilgan uslubiy tavsiyalar.

Bizgacha Primqulova N. “Interfaol metodlar vositasida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish muammolari”, Sanaeva N. “Ta’lim samaradorligini ta’minalashda o‘qitishning noan’anaviy shakllardan foydalanish yo‘llari”, Bektaev A. “O‘quvchilar faolligini oshirishda ta’limning interfaol metodlaridan foydalanishning pedagogik asoslari” mavzusidagi magistrlik dissertasiyalarini tadqiq etishgan. Taxlilarni o‘rganish asosida biz quyidagi mavzu bo‘yicha tadqiqoti o‘tkazilmaganligi aniqlandi va bitiruv malakaviy ishmizning mavzusini “Boshlang‘ich sinf darslarini integratsiya va innovatsion tizimi” deb nomladik.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi:** Boshlang‘ich sinf darslarini integratsiya va innovatsion tizimi o‘rganish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

### **Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.**

- ✓ Boshlang'ich sinf darslarini integratsiya va innovatsion tizimi bo'ycha adabiyotlar tahlili;
- ✓ Boshlang'ich sinf darslarini integratsiya va innovatsion tizimining mavjud xolatini o'rganish;
- ✓ Integratsiyalashgan va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosidagi dars ishlamalarni yaratish;

**Bitiruv malakaviy ishining o'bekti:** Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya jarayoni.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti:** Boshlang'ich sinf darslarini integratsiya va innovatsion tizimining shakl, metod va vositalari.

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik asoslari:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'lim tizimiga bo'lgan munosabati, ta'limni isloh qilishdagi demokratik o'zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish, ta'lim tizimiga bo'lgan qarashlari, shuningdek mavzuga oid ilmiy-pedagogik manbalar, o'quv metodik majmularida asoslangan pedagogik g'oyalar.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi:** BMI kirish, uch bob, besh paragrif, xulosalar va adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

## **I-BOB. Boshlang‘ich sinflarda integratsiya va innovatsion darslarini joriy qilishning nazariy asoslari.**

### **1.1 An’anaviy darslar tarixidan.**

Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayoti va turmush darajasi fan va ma’daniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Fan va ma’daniyat rivojlanishi ta’lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi.

Shunday ekan, O‘zbekiston mustaqillikka erishganiga endigina 20 yil bo‘lishiga qaramay qonun tomonidan ta’lim-tarbiya masalalariga alohida o‘rin ajratilgan. O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 11 sessiyasida 1992 yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 41-moddasida shunday deyilgan: “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiylar ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. O‘quv muassasasi ishlari davlat nazoratidadir”

Mana shu yillar davomida ta’lim-tarbiya soxasida milliy axloq-odobni qayta tiklash borasida milliy urf-odatlar, turli-tuman an’analarni joy-joyiga qo‘yish, milliy qadriyatlarni rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burilishlar bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda pedagogik tafakkur va ta’lim-tarbiya taraqqiyoti tarixiga nazar tashlab, shartli ravishda uch davrga bo‘lib o‘rganish mumkin.

1.Oktyabr to‘shtarishigacha bo‘lgan davr (1917yilgacha)

2.Sho‘rolar davri (1917-1991)

3.Mustaqillik davri (1991 yildan keyin)

**Oktyabr to‘ntarishigacha bo‘lgan davr(1917 yilgacha)**

Bu davrda Zardushtiylik dinining chuqur ildiz otishi va shu dinning muqaddas kitobi “Avesto”ning Markaziy Osiyo va Eron kabi mamlakatlar

o‘rtasida yoyilishi, islom dinini Markaziy Osiyoga kirib kelishi, tarqalishi va aholini bu dinni qabul qilish bilan boshlanadi.

Ma’lumki, 7 asrgacha, ya’ni arablar istilosidan oldin Markaziy Osiyoda zardushtiylik dini keng tarqalgan bo‘lib, Turon, Eron, So‘g‘d va Xorazm xududlarida yashagan xalqlar asosan zardushtiylik ta’limotiga muvofiq o‘z farzandlarini ibratli ahloq-odob qoidalari asosida tarbiyalaganlar. Zardushtiylik dininig asoschisi va “Avesto” kitobining muallifi Spitama Zaratushtra ta’lim-tarbiya masalalariga xam katta ahamiyat began holda mana bunday deydi: “Tarbiya hayotning eng muhim tirdagi tayanchi bo‘lib hisoblanishi lozimki, u avvalo yaxshi o‘qishni, keyin esa yozishni o‘rganish bilan eng yuksak pog‘onaga ko‘tarilsin”.

“Avesto”da bolalarni o‘qitish va tarbiyalash qoidalari quyidagi tartibda tavsiya etilgan:

- a) diniy va ahloqiy tarbiya;
- b) jismoniy tarbiya;
- v) o‘qish va yozishga o‘rgatish;

Zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra, 15-yosh balog‘at yoshi hisoblangan. Balog‘atga yetgan bolalar zardushtiylikka e’tiqodi ramzi sifatida beliga yung ipakdan to‘qilgan kamar bog‘lab yurishi va “otashparastlar” ibodatxonasida o‘tkazilgan diniy marosimlarda qatnashishi shart bo‘lgan. Bolalarni kohinlar zardushtlik rasm-rusumlarini bajarishga, falsafa, odob-axloqqa o‘rgatishgan.

Zardushtiylikda ma’rifat va bilimning kuchiga qattiq e’tiqod qilinadi va oqibat natijada ma’rifat yutib chiqadi, deb hisoblanadi. O‘sha davrda bolalarning faqat sihat-salomat va jismonan baquvvat bo‘lishi haqidagina emas, balki ilmu-ma’rifat olishi va ma’naviy sofligi, yaxshilik, ezgulik hislatlarini egallashlari to‘g‘risida xam g‘amho‘rlik qilingan. Asosan, bolalarda ahloqiy poklik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, saxovatlilik fazilatlarini tarbiyalashga muhim ahamiyat berilgan. Jismoniy tarbiyadan nazarda tutilgan asosiy maqsad: bolalarni harbiy ishga tayyorlash va ularni jismonan chiniqtirishdan iborat edi. Darvoqe, harbiy tayyorgarlik jarayonida bolalar otda chopish, ov qilish, qilichbozlik va

qalqonda raqibidan o‘zini himoya qila bilish, suvda suzish, uzoqqa yugurish, sakrash, nayza irg‘itishni egallashi majburiy bo‘lgan. Biroq, diniy- ahloqiy va harbiy-jismoniy tarbiyani egallahash barcha tabaqadagi kishilarning farzandlari uchun shart bo‘lsa-da, ammo o‘qish, yozish va hisoblash (sanash)ni o‘rganish esa faqat yuqori tabaqadagi kishilarning bolalari uchun edi, xolos. [30.33] Yuqori tabaqadagi kishilarning bolalari uchun saroy va ibodatxonalar qoshida maxsus maktablar mavjud bo‘lib, bu yerda ularga tajribali ustozlar saboq berishar, taniqli lashkarboshilar esa harbiy san’at sir-asrorlarini puxta o‘rgatishar edi. O‘qituvchilar ulamo kohinlar bo‘lib, ular jamiyat ma’naviy xayotida muxim mavqega ega edilar. Maktabda kichik yoshdagi bolalarni o‘qitish jarayonida ko‘rsatmali qurollardan, hikoya qilish va suhbat-muloqot usullaridan keng foydalanardilar. Darsda o‘quvchilardan o‘tilgan mavzuni shovqinsiz takrorlash talab qilinar edi. Bolalarda yoshlikdan mehnatsevarlik va kasb-hunar egallahash malakasi hamda ko‘nikmasini shakllantirishga katta e’tibor berilgan. Ular yosh paytidanoq daraxt ko‘chati o‘tkazish, uy-ro‘zg‘or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug‘ullanishga o‘rgatilgan.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, o‘sha davr kishilarining orzusi hayotda farovon turmush kechirish uchun faqat mehnat qilishdan iborat bo‘lgan. Zero, inson mehnatisiz tirikchilik qila olmaydi. Shuning uchun inson kamoloti va ahloqiy sog‘lomligi manbai sifatida mehnat ulug‘lanadi.

Xulosa shuki, qadimgi bobokolonlarimiz ko‘ziga to‘tiyo qilgan “Avesto” muqaddas kitobi faqat diniy qo‘sish, hikoyat va rivoyatlardan iborat bo‘libgina qolmasdan, balki tabiiy fanlar, xususan, tabobat, ta’lim-tarbiya masalalarini ham o‘z ichiga olgan. Biz bu qadimiy noyob bilimlar xazinasini bilan tanishar ekanmiz, Zardushtra payg‘ambarning o‘z hayoti haqida, zamondoshlari haqida, shuningdek, u targ‘ib qilgan ta’limotiga sig‘ingan mamlakatlarning davlat tuzilishi, ta’lim-tarbiya va ahloq-odob to‘g‘risida ko‘p narsalarni bilib olamiz. Zardushtiylik dinining afzal tomonlaridan biri shu ediki, unda hukmdorlar saltanatini mustahkamlovchi rasmiy aqidalar bilan birga, insonni o‘z hayotining,

o‘z taqdirining yaratuvchisi sifatida ulug‘lovchi insonparvarlik g‘oyalari ham qaror topgan edi.

**2.**Beruniy Abu Rayxon Muhammad ibn Ahmad (973-1048), eng avvalo, qomusiy olim sifatida butun dunyoga manzur va mashhurdir. Uning dastlabki yirik asari “Al-asror alboqiya an al-qurun al-holiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) bo‘lib, buni u 27 yoshida yozgan edi. 486 sahifadan iborat bu asar o‘zbekchaga 1968 yili tarjima qilingan. Olimning 364 sahifadan iborat “Tahdid nihoyot il-amokin li tas’hih masofot il-masokin” (“Turar joylar (orasidagi) masofani aniqlash uchun manzillarning chegaralarini belgilash”) “Geodeziya” nomi bilan yirik kitobi mashhur bo‘lib ketgan.

O‘sha davr ichida Beruniy falsafiy pedagogika mакtabini yaratgan. Uning pedagogik qarashlari va faoliyatini o‘rganishda olimning o‘zidan ilgari o‘tgan pedagoglarga nisbatan qanday yangi, nekbin fikrlar bildirganiga hamda ijodidagi ilgarilab boradigan pedagogik qarash va fikrlari rivojlanishiga e’tiborni qaratish juda muhimdir. Beruniy rahbarlik qilgan bu ilmiy dargoh qariyb 10 yil faoliyat ko‘rsatgan. Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta’lim-tarbiyasi, kamolati bosh masala bo‘lgan. Buyuk pedagog olim tarbiyaning maqsadi, vazifalari va roli, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma’noda insonparvarlik va insonshunoslik asosiga qurilgan. Beruniyning pedagogik g‘oyalaridan eng muhimi bilimni puxta va mustahkam egallash zarurligidir. Mana, oradan ming yildan otiq vaqt o‘tishiga qaramasdan, Beruniyning ilg‘or hayotiy pedagogik va falsafiy g‘oyalari hozir ham g‘oyatda qimmatlidir.

Shunday qilib, xulosa qilsak, Beruniyning pedagogik qarashlari asosan:

-oilada bola tarbiyasi; aqliy ta’lim;

-ahloqiy va jismoniy tarbiya;

-mehnat va insonparvarlik tarbiyasi:

**3.** Abu Nasr Farobiy (873-950) O‘rtas asr Sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon ilmi va falsafasining Sharqdagi eng yirik targ‘ibotchisi va uning rivojiga hissa qo‘shtigan olim. Farobiy o‘z davrining qator ilmlarini chuqr

o‘rganib, turli sohalarga oid ilmiy asarlar yozib qoldirdi. U o‘z davrining birinchi faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi bo‘lib nom qozondi. U “Aql haqidagi risola”, “Falsafani o‘rganishdan oldin nimani bilish kerak?”, “Substansiya haqidagi so‘z”, “Falsafaning ma’nosи va kelib chiqishi”, “Mantiq ilmiga kirish”, “Masalalar mohiyati” kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi.

O‘zida o‘n ikki tug‘ma hislatni birlashtirgan kishigina axloqli odam bo‘la oladi:

**Birinchidan**, bunday odamning barcha organlari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo‘lishi zarurki, u bu organlari bilan bajarmoqchi bo‘lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin;

**Ikkinchidan**, barcha masalani, muxokama va mulohazani tezda va to‘g‘ri tushuna oladigan, uning ma’nosini anglay oladigan, so‘zlovchining maqsadi va aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo‘lsin;

**Uchinchidan**, xotirasi juda baquvvat bo‘lsin, ko‘rgan –eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo‘lsin;

**To‘rtinchidan**, zehni shu darajada o‘tkir bo‘lsinki biror narsaning alomatini sezishi bilan, bu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsin;

**Beshinchidan**, so‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon ayta olsin;

**Oltinchidan**, bilish va o‘qishga muhabbati bo‘lsin, o‘rganmoqchi bo‘lgan bilimini chachashni sezmasdan osonlik bilan o‘zlashtira olsin:

**Yettinchidan**, ovqatlanishda, ichimlik iste’mol etishda ochko‘z bo‘lmasin, tabiat qimor o‘yinlarini o‘ynashdan uzoq bo‘lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo‘lsin:

**Sakkizinchidan**, haqiqatni va haqiqat tarafdarlarini sevadigan bo‘lsin, yolg‘on va yolg‘onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lsin:

**To‘qqizinchidan**, ruhi g‘ururli va o‘z vijdonini qadrlaydigan bo‘lsin, uning ruhi o‘z tabiat bilan past ishlardan yuqori va oljanob ishlarga intiladigan bo‘lsin:

**O‘ninchidan**, dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin:

*O'n birinchidan*, o'z tabiat bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga, adolatsizlikka, jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, go'zal va yaxshi hisoblangan narsalarini barchaga taqdim etgan holda, odamlarni adolatga targ'ib etadigan holda, adolatsizlik natijalarini yo'qotadigan, ularga yo'l qo'ymaydigan bo'lsin:

*O'n ikkinchidan*, adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin, adolat oldida, adolatsizlik, pastkashlik oldida qat'iy so'zlik bo'lsin, o'zi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qat'iylik ko'rsatsin, qo'rmas, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin: Ta'lim-tarbiya ahllari ham o'z bilimlarining darajasiga qarab bir-birlaridan farq qiladilar, ortiq kam bo'ladilar. Ularning ba'zi birlarida kashf, ixtiro quvvati bo'lmaydi, ba'zilarida esa bu quvvat kamroq bo'ladi.

**4.** Biz tarixdan bilamizki Amir Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnaxr tarixida alohida o'rin egallaydi. Chunki bu davrlarda Samarqand, Hirot shaxarlarida ma'daniyat, ilm-fan rivojlanib bordi.

Dastavval, shuni aytish kerakki, Amir Temur odob-ahloq, iymon, e'tiqod, ta'lim-tarbiyada o'zi yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch xosil qilish uchun bobomizning o'zi tomonidan yaratilgan odob-ahloqga oid dasturlar, o'gitlar, pand-nasihatlarni, shuningdek, Sohibqiron haqida tarixiy asarlarni ko'zdan kechirish kifoya. "Tuzuki Temuriy" ("Temur tuzuklari"), "Marfuzaota Temuriy" ("Temurning aytganlari") va "Vakiota Temuriy" ("Temurning boshidan kechirganlari") nomi bilan jahonga mashhur bo'lgan asarlarida Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va purma'no o'gitlarining xar biri mazmun va ma'no kengligi, kuchliligi, teranligi, ta'siri, umuminsoniy qadriyatlar asosida qurilgan bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarlarni qadrli xazina odob-axloqga oid dasturlar deya olamiz.

**5.** Xalqimiz asrlar osha ardoqlab, e'zozlab kelgan, milliy ma'daniyatimiz, fanimiz, ma'naviyatimizni shakllanishiga bebaho hissa qo'shgan buyuk siymolardan biri yetuk davlat arbobi, munajjim, matematik, handasa ilmining buyuk namoyondasi, musiqashunos, shoir va nihoyat pedagogika fani rivojiga barakali hissa qo'shgan zabardast olim Muhammad Tarag'ay Ulug'bek edi.

1398 yildan Ulug‘bekga Hamza ibn Ali qissago‘y qilib tayinlandi. Uning yordamida 4 yoshidayoq o‘qish va yozishni o‘rgandi.

Muhammad Tarag‘ayning ilmiy, ma’daniy kamoloti ana shunday muhitda shakllanib, sayqallanib bordi. Ma’lumki, musulmon davlat tuzumida ikki asosiy bosqich: ibridoiy maktablar va o‘rta madrasalar mavjud edi. Ulug‘bek davrigacha ham bu tizim saqlanib qolgan. Lekin Ulug‘bekning tashabbusi bilan ta’limning boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida barcha mahallalarda qorixona va daloilxonalar qaror topdi.

Allomaning fikricha fanni egallah, loaqal savod chiqarish muhim masala edi. Ibtidoiy maktablarda o‘qish muddati qat’iy chegaralab qo‘yilmagan edi. O‘quvchi belgilab qo‘yilgan miqdordagi bilimlarni (aksariyat diniy bilimlarni) egallay olmasa, u 15-20 yillab o‘qishda qolib ketishi mumkin edi.

Ulug‘bek tashkil etgan daloilxonalarda o‘qish muddatini qat’iy 8 yil qilib belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, dars berishning individual usulidan “jamo” usuliga o‘tkazildi. Bunda har bir guruxda yosh jihatiga ko‘ra 15-20 o‘quvchi bir vaqtida saboq olar edilar. Bu endi dars o‘tishning sinf sistemasiga yaqinlashish edi.

Daloilxonalarni muvaffaqiyatli bitirgan bolalar o‘rta ta’lim madrasalarida bilim olishga yo‘naltirilganlar.

Ulug‘bek keng ko‘lamda ilmiy tadqiqotlar o‘tkaza olishga qodir, ilmiy kashfiyotlarni amalga oshira oladigan oliy bosqichdagi madrasalar bo‘lishini ham orzu qilgan.

1417 yilda Buxoroda, 1420 yilda Samarqandda, 1433 yilda G‘ijduvonda qurilgan edi. Shuning uchun ham biz Ulug‘bek haqli ravishda Samarqandda oliy ta’lim tizimiga asos solgan deya olamiz.

**6.** O‘zbek adabiyotining asoschisi, shoir, olim, ma’rifatparvar, faylasuf, musiqashunos davlat arbobi Nizomiddin Alisher Navoiy Hirotda tug‘ilib, shu yerda yashab ijod etgan. U o‘zining “Xamsa”, “Maxbub ul-qulub” kabi yirik ta’limiy-ahloqiy asarlarida, shuningdek, “Munojot”, “Vaqfiya”, “Majolisun nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarida tarbiyaga oid o‘z qarashlarini ifoda etadi.

Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimini va ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U “Bilim va donishmandlik insonning bezagidir”-deb yozadi. Navoiy bola tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, bolani hayot “chirog‘i” deb ta’riflaydi. Bola oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Alisher Navoiy pedagog-mudarris. U, ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko‘rsatadi. U ta’limda *ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik* kabi talablarni asos qilib oladi. O‘z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. Uning asarlarida ahloqiy va mehnat tarbiyasiga doir qarashlar asosiy o‘rinni tashkil etadi.

### **Sho‘rolar tuzumi davri.**

Taniqli o‘zbek pedagogi va olimi Abdulla Avloniy jadidlarning yetuk vakillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. U o‘zining dastlabki she’rlarida va “Xijron” degan maqolasida xalqni yangi usul o‘quv muasssalarida o‘qib- o‘rganishga targ‘ib qiladi.

A.Avloniy 1907 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Direz mahallasida yangi usuldagagi o‘quv maktablari ochdi. O‘quv maktablardagi o‘quv-asbob jihozlarini o‘zgartirdi, o‘z qo‘li bilan parta va doskalar yasadi. O‘quv muassasasiga qabul qilingan tarbiyalanuvchilarning asosiy qismi kambag‘al kishilarning farzandlari bo‘lgani uchun ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, daftargalam bilan ta’minalash maqsadida, do‘sstarining ko‘magida “Jamiyat xayriya” tashkil etadi va bu jamiyatga o‘zi raislik qiladi. Avloniyning o‘quv muassasasini o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalariga ko‘ra mashg‘ulotlarni sinf-dars tizimi asosida o‘z ona tilida olib borilishi bilan eski usul o‘quv maktablaridan farq qiladi. U o‘z o‘quv muassasasida bolalarga geografiya, tarix, adabiyot, til, xisob, xandasa, hikmat kabi fanlardan muayyan ma’lumotlar beradi.

**2.Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li (1878-1931)** ham “usuli savtiya” maktabiga ixlos bilan qarab, chor hukumati Turkiston o‘lkasidagi aholini qanday ma’naviy-ma’daniy uzlatda saqlanayotganini va undan qutulish choralari faqat maktab ta’lim-tarbiyasidagi keskin islohatga bog‘liqligini to‘g‘ri tushungan holda chor hukumatining mustamlakachilik boshqarma usuliga qarshi kurashda faollik

ko'rsatdi: mana shu maqsad yo'lida toshkentda ilg'or fikrli ziyolilar va turli guruhlardan iborat "Turon" jadidchilar jamiyatini tashkil etdi. Munavvar qori Turkiston o'lkasining iqtisodiy va ma'daniy taraqqiyot yo'liga kirishida, musulmon bolalariga dunyoviy bilimlar berishning birdan-bir yo'li eng avvalo mavjud eski maktab va madrasalarni isloh qilish, yangi maorif tarmoqlarini yaratishda deb tushungan holda, o'ris-tuzem maktablariga qarshi yangi usuldagi maktablarni ochishga ahd qiladi. O'zbek halqini ma'rifatli qilishga intilgan Munavvar qori 1918 yil may oyida Toshkent shahrida "Turk o'chog'i" ilmiy-ma'daniy jamiyatini tuzadi. Ushbu jamiyat Turkiston turklarini milliy tug' ostiga to'plab, ularga milliy ruh, milliy g'oya va milliy tarbiya berish, milliy urf-odatlar asosida ilm-ma'rifatli, tijorat, adabiyot va san'atni rivojlanТИRIB, chin bir turk ma'daniyatini vujudga keltirishni va shu tariqa millatimizning ruhiy va jismoniy quvvatini orttirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Munavvar qori ana shu g'oya asosida astoydil ish olib bordi.

### **Mustaqillik davri (1991 yildan keyin)**

Ta'limni boshqarishning asosiy tashkiliy shakli quyidagi ma'lum belgilarga ega bo'lgan mashg'ulotlar guruh yo'sinda o'tkaziladi:

- mashg'ulotlarning har yili va har bir o'qish kuni bir paytda boshlanishi;
- mashg'ulotlar va ular orasidagi tanaffuslarning ma'lum vaqt davom etishi;
- guruhlardagi bolalarning yoshi va soni jihatdan baravarligi;
- material o'rganish sur'atining bir xilligi;
- o'quv mashg'ulotlarining ma'lum tashkiliy shaklda o'tkazilishi.

Guruhli mashg'ulotlarning sinf-dars tizimi deb atalgan bunday shakli keng tarqaldi, mustahkamlandi va hozir ham ancha takomillashgan holda mavjuddir.

Maktab rivojlanishi tarixida 20-yillarda ta'limning yakka tartibdagи shakli notanqidiy yo'sinda qabul qilindi va amaliyotga ta'limning brigada-laboratoriya metodi bilan kiritildi. Unda bir guruh (5-6 nafar) o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan materialni mustaqil holda o'rgandilar. O'qituvchi maxsus tushuntirishlar bermay, faqat yo'l-yo'riq ko'rsatgan. Hamma narsa uchun

brigadir javob bergen. Bunday ta’lim bolalarning o‘quv faoliyati uchun ma’suliyatini pasaytirgan.

Maktab barham topishining noto‘g‘ri pedagogik konsepsiyalari davrida ta’limning “loyihalar metodi” deb atalgan shakli vujudga kelgan. Unda o‘quvchilar o‘qituvchining topshirig‘i bo‘yicha qandaydir ob’ektning loyihasini tayyorlaganlar. Mazkur g‘oyalar mualliflarinig aytishicha, o‘quvchilar loyihani tuzishda o‘quv rejasi bo‘yicha o‘tiladigan predmetlarga doir kompleks bilimlarni o‘zlashtirgan.

So‘nggi yigirma yil mobaynida pedagogika nazariyasi kombinatsiyalashgan darsni o‘rganishdan darsni elementlari bo‘yicha bosqichma-bosqich o‘zlashtirishga, undan sintetik va nihoyat, muammoli o‘rganishga o‘tdi. Tadqiqotlarning uzviyligi va uzviy yondashishi to‘g‘risida juda ko‘p ilmiy adabiyotlar mavjud. Masalan, M.I.Maxmutov, T.D.Kirilova, F.F.Korolyov va E.G.Yudinlarning hozirga zamon darsi, uni tashkil etish shakli, kamol toptiruvchi ta’lim sharoitdagi dars nazariyasi va amaliyoti, muammoli dars va xokozolarga doir kitoblarida darsga sistema sifatida qaralsagina, uni chuqur tushunish mumkinligi qayd qilingan. Lekin pedagoglar 70-yillardagina darsni o‘rganish va tushuntirishga sistemali yondashish zarurligini to‘la angladilar. Fanlar rivojlanishining hozirgi bosqichida darsni qanday tushunish kerak?

Dars nazariyasida hozirgacha bu tushunchaning yangi ta’riflari yo‘q. Ko‘p ta’riflarda xuddi ilgarigidek, dars ma’lum vaqt mobaynida tarkibi o‘zgarmaydigan o‘qituvchi va o‘qituvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo‘lib, u bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish uchun muntazam qo‘llanishi ifodalangan.

Darsda o‘quv-tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning hamma didaktik elementlari mujassamlashgan, deb hisoblash qabul qilingan.

Tabiiyki, dars yaxlit ta’lim jarayonini o‘quv-tarbiya ishining boshqa tashkiliy shakllari uy vazifasini bajarish, predmet to‘garaklarining mashg‘ulotlari, sayrlar va hokozolar bilan uzviy birlikda aks ettiradi. “Darsni ikki jihatdan: umuman,

ta’lim jarayoni va ta’limni tashkil etish shakli sifatida ta’riflab uni foydali deb hisoblash taklifi bor (M.I.Maxmutov). Ta’limga umumiy jarayoni dars o‘qitish harakatining ta’lim mazmuni, prinsiplari va metodlari bilan belgilanadigan, ma’lum makon-zamon chegaralarida o‘qituvchi rejalashtiradigan hamda boshqaradigan birlikdagi ob’ekt o‘qituvchi va o‘quvchilar amalga oshiradigan asosiy shaklidir. Mazkur tushuncha ikkinchi nuqtai nazardan quyidagicha ta’riflanadi; dars ma’lum tarkibdagi o‘qituvchilar (muallimlar) bilan o‘quvchilarning maqsadga muvofiq o‘zaro ta’siri (faoliyatları va aloqaları) jarayonini tashkil etishning, ta’lim mazmuni, shakllari, metodlari, vositalarini o‘z ichiga oladi, ta’lim jarayonida o‘qitish, kamol toptirish va tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun (bir xil vaqt ichida) muntazam qo’llanadigan boy va o‘zgaruvchan shaklidir”.

***Dars- deb bevosa o‘qituvchining rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boradigan ta’lim mashg‘ulotiga aytildi.***

Maktablarimiz bosib o‘tgan tarixiy davr ichida ta’limni tashkil qilish shakllari o‘zgardi, rivojlandi. Xozir maktablarimizda qo’llanilayotgan sinf-dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi.

1. Xar qaysi sinf yoshi va bilimiga ko‘ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo‘ladi.
2. Dars mashg‘uloti asosan 45 minutga mo‘ljallangan bo‘lib, qat’iy jadval orqali olib boriladi.
3. Dars bevosa o‘qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.
4. Dars o‘tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta’lim tizimining bir qismi sifatida , albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o‘zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyshtiriladi.

Darsning muayyan miqdordagi tiplarini belgilashning turlari, yo‘llari bilan uning ancha jiddiy strukturasi ishlab chiqilgan. T.A.Ilina darsning o‘z strukturasiga barcha asosiy elemenlarini olgan tipini, ya’ni umumiy yoki aralash darsni tavsiya etadi.

**Darsning birinchi bosqichi**-Tashkiliy qism. Odatda, bu qismga salomlashish, o‘quvchilarning, sinf xonasidagi jihozlarning darsga tayyorligini tekshirish, darsda yo‘q o‘quvchilarni aniqlash, ishning rejasini e’lon qilish kiradi. Tashkiliy qismning maqsadi- darsda ish vaziyatini vujudga keltirishdir.

**Darsning ikkinchi bosqichi** - yozma uy vazifasini qo‘yilgan maqsaddan qat’iy nazar , turli metodlar bilan tekshirish.

**Darsning uchinchi bosqichi**- o‘quvchilarning bilimlarini og‘zaki tekshirish (yoki ulardan so‘rash).

**Darsning to‘rtinchi bosqichi**- o‘qituvchining bayon etishi asosida yoki o‘qituvchilarning mustaqil tahlil qilishi orqali yangi materialni tushuntirish.

**Darsning beshinchi bosqichi**- uyga topshiriq berish. Darsning bu qismiga mazkur topshiriqning mohiyatini, lozim bo‘lsa, uni bajarish metodikasini ham tushuntirish, uni o‘qituvchining o‘zi doskaga yozishi, o‘quvchilarning daftarga yoki kundalikka ko‘chirishi kiradi.

**Darsning oltinchi bosqichi**- yangi materialni mustahkamlash, ya’ni dastlabki yoki yo‘l-yo‘lakay mazkur material bayon qilinayotganda amalga oshiriladigan mustahkamlashdir.

**Darsning yettinchi bosqichi**- uni tugallashdan iborat bo‘lib, bu ish tashkiliy ravishda amalga oshirilishi kerak. Chunki dars faqat o‘qituvchining ko‘rsatmasi bo‘yicha mustahkamlanadi.

Biz yuqorida a’nnavy dars tizim uning davrlar bo‘yicha rivojlanish jarayonida haqida to‘xtalib o‘tdik. Mazkur bobning ikkinchi faslida ta’lim jarayonida itnerfaol usullardan foydalanish omillari haqida ma’lumot berib o‘tamiz.

## **1.2.Ta’lim jarayonida pedagogik innovatsion usullarni qo‘llash va samaradorligini oshirish omili sifatida.**

Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, “Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi”ni ta’lim jarayoniga tadbiq etish bilan ta’limda sifat va samaradorlikka erishish va shu orqali modernizasiya qilingan ta’lim standartlari to‘liq bajarilishi ta’min etish davri boshlandi.

Davlatimiz tomonidan yangi maktablar qurilishi, minglab maktablarni yangitdan rekonstruksiya qilish, joriy ta’mirlash ishlari jadal sur’atlar bilan olib borilmoqda.

Maktablarni yangi jihoz, asbob-uskunalar, takomillashtirilgan dasturlar, moderinizasiya qilingan, tajriba-sinovdan o‘tgan standartlar, darsliklarning yangi avlodи bilan (ijara tariqasida) ta’minlash, kompyuterlashtirish davlat umummilliy dasturi asosida izchil amalga oshirilmoqda.

Endi o‘quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi.

Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o‘rniga darslarni tashkil etishga ma’suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdonlik, metodik mahoratga ega, ma’suliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o‘zlashtirib olgan, innovasiyalar asosida ta’limni tashkil eta oladigan o‘qituvchilarga talab oshib bormoqda. Ta’limda moddiy baza, standart, o‘quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o‘zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni olib boruvchi o‘qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga pedagogik mahoratiga bog‘lanib qolaveradi, o‘quv-biluv markazida esa o‘quvchi turmog‘ini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prizidenti “Tarixiy xotirasiz - keljak yo‘q” asarida komil inson tushunchasiga aniq ta’rif beradilar. **“Komil inson deganda biz, eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, o‘z xulq-atvori bilan**

**o‘zgalarga ibrat bo‘la oladigan, bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz”.**

Ta’lim tizimi va maktab oldiga maqsad qilib ya’ni, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish qo‘yildi.

O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilish maqsadida «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning amaldagi holati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz I.A. Karimov bu muammo ilmiy-nazariy va amaliy nuqtai nazardan asoslab, o‘quv-tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, boshqarish, maqsadga erishish samaradorlikni oshirishning muhim omili deb hisobladi.

Respublikamizda olib borilayotgan ta’lim islohotlari, mutaxassis kadrlar salohiyotini oshirishga qaratilgan bo‘lib, oliy o‘quv yurtlarida pedagoglarning metodik mahoratini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kun pedagogika sohasida kirib kelayotgan yangiliklar, yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik innovasiyalar zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Oliy ta’lim (shuningdek o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi) mutaxassis kadrlar tayyorlashda bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik mahoratiga, ularni o‘qitishning yangi usullarini o‘zlashtirishlariga yetarli e’tibor berilmayotganligi ta’lim sifati samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

“Pedagogik texnologiya” atamasi o‘qituvchilarimiz orasida ikki xil ma’noda qo‘llanilmoqda:

1. Zamonaviy texnika, elektron hisoblash mashinasi, kompyuter, audial, vizual asboblarini ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘llab samaradorlikni oshirish;
2. Ta’lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o‘rganish, qayd etish yo‘llari bilan o‘qituvchining kafolotlangan natijaga erishishini ta’minalash.

Ta’limning kafolotlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko‘rinadiki natija maqsadga qancha yaqin bo‘lsa, o‘quv-tarbiya jarayoni shuncha samarador hisoblanadi va bu ta’limning zamonaviy texnik vositalari va ilg‘or texnologiyalarni amalga oshirishning muhim

jihatlaridan bo‘lib, ikkinchi talqin, ta’lim-tarbiya jarayoni maqsadi, vositasi, natijasini oldindan o‘rganish, qayd etish yo‘llari bilan o‘qituvchining kafolotlangan natijaga erishishini ta’minalash.

Demoqchi bo‘lgan fikrimiz shundan iboratki, o‘qituvchi faoliyatining asosini dars tashkil etadi. Ta’lim jarayonining samaradorligini belgilash hamda maqsadga erishishning eng maqbul yo‘li va usuli metodni tanlash bilan belgilanadi.

“Metod” atamasi yunoncha “metodos” so‘zidan olingan bo‘lib, yo‘l, haqiqatga intilish, kutilayotgan natijaga erishish usuli ma’nosini anglatadi.

O‘qituvchi metod tanlashda:

*Birinchidan*, o‘qitish usuli, o‘qish faoliyati usullari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishiga;

*Ikkinchidan*, maqsadlarga erishishda o‘qituvchi o‘quvchi hamkorligi o‘z aksini topishi shart ekanligiga;

*Uchinchidan* o‘quvchilarning yosh, individual psixologik xususiyatiga;

*To‘tinchidan*, mavzularning izchilligi va tizimlilagini hisobga olganlikka e’tibor beradi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan talablar pedagogik texnologiyaning interfaol usullarida o‘z aksini topgan. Bular: ”Aqliy Hujum”, ”Yalpi fikriy Hujum”, ”Qarorlar shajarasi”, ”Zig-zag”, ”6x6x6”, ”Qora quti”, ”Bilaman. Bilishni xoxlayman. Bilib oldim”, Klaster, Panaroma . . . kabi metodlardir.

Ta’lim jarayoniga bu metodlarni qo‘llash:

- o‘quvchining muayyan nazariy bilimlar puxta o‘zlashtirishga;
- vaqtning tejalishiga;
- har bir o‘quvchining faollikka undalishiga;
- o‘quvchining erkin fikrlash layoqatini shakllanishiga;
- o‘quvchida o‘zgalarning fikrini tinglay olish ko‘nikmasining hosil bo‘lishiga;
- o‘quvchining o‘z fikrini himoya qila olishiga;
- o‘quvchida bildirilgan fikrlarni umumlashtira olish ko‘nikmasini shakllanishiga olib keladi.

Shunday qilib ta’lim jarayoniga interfaol usullarni qo‘llashda o‘qituvchi ta’lim jarayonining boshqaruvchisi vazifasida bo‘lib, bunda boshqaruv maqsadi ta’limning ob’ekti va sub’ekti sifatida o‘quvchiga yo‘naltiriladi. Demak, pedagogik texnologiya ta’lim mazmuni usul, shakl va vositalar asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayon kafolatlangan natijaga erishishga yo‘naltiriladi.

Noan’anaviy o‘qitish usullaridan foydalanishdan maqsad nima uning afzalliklari darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savolga quyidagicha xosilalar asosida javob berish mumkin.

1. Noan’anaviy o‘qitish eng sodda qulay usul.
2. Mustaqil fikrlashni qrgatadi.
3. Ko‘p tarmokli.
4. Sodda va oson.
5. Bilim boyligini oshiradi.
6. Vaqt dan yutadi.
7. Qiziqarli o‘tadi.
8. Darsning samaradorligini oshiradi.
9. Dunyoqarashni kengaytiradi.
10. Tafakkurni rivojlantiradi.
11. O‘quvchilarining diqqat e’tiborini tortadi.
12. Har bir o‘quvchi bilan individual munosabatda bo‘ladi.
13. Xotirani kchaytiradi.
14. Izlanishga chorlaydi.
15. O‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga chorlaydi.

O‘qitishdan ko‘zlanadigan maqsad bu davlat ta’lim standartlarida belgilangan bilim va kqnikmalarini o‘quvchiiga yetkazishdan iborat. qachonki o‘quvchni tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o‘quvchii malaka oshirish uchun mqljallangan topshirihlarni amalda namoyish etib bera olsagina o‘qitish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bo‘ladi.

Ba’zi mamlakatlarning ta’lim sohasida to‘plangan ilg‘or tajribalari tahlilidan ayon bo‘ldiki, shaxsning intellektual salohiyati, dunyoqarashi, ma’naviy-ahloqiy

kiyofasining shakllanishida u mansub bo‘lgan muhit, unda qaror topgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning ahamiyati katta ekan. Zero, ushbu jamiyatda uning tafakkuri, ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishi uchun zarur bo‘lgan ob’ektiv va sub’ektiv omillar mavjud. Rivojlanayotgan O‘zbekiston jamiyatida ta’lim muassasalari, shu jumladan, boshlang‘ich ta’lim darslarining ham alohida o‘ringa ega. Zero, muayyan kasb-hunar asoslaridan yosh avlodni xabardor etish ularni mustaqil hayotga tayyorlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lum kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanish shaxsning moddiy ehtiyojlarini ta’minlash uchungina emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash Milliy modelining mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayoniga samarali tatbiq etilishi xalq xqjaligidagi ishlab chiqarish ob’ektlari, ilmiy hamda o‘quv muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta’minlash imkonini beradi. Mazkur masalaning dolzarbliги xususida to‘xtalar ekan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quydagilarni qayd etib o‘tadi: «O‘zbekiston innovation rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o‘tishi uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyatga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko‘paytirishga asoslanadi. Bu - mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyat ehtiyojlari asosida shakllantirilayotgan barkamol avlod va malakali mutaxassisning rivojlanishini ta’minlashda boshlang‘ich ta’lim darslarining o‘rni beqiyos ekanligi davlat siyosati darajasida e’tirof etilmoqda. Ayni vaqtida O‘zbekiston Respublikasi hududida sanoat, savdo, qishloq xo‘jaligini mexanizasiyalashtirish, transport, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlarida mutaxassis tayyorlaydigan boshlang‘ich ta’lim darslari qo‘rilib, ularda muayyan maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa,

xalq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan mutaxassislar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan ko‘plab kollejlarning qurilishi davom ettirilmoqda 2005 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasining viloyat, tuman, shahar hamda qishloq hududlarida ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari va aholi, shuningdek, xalq xo‘jaligining kadrlarga bo‘lgan ichki ehtiyojlarini inobatga olgan holda muayyan yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatuvchi yangi turdagи o‘quv muassasalarini joylashtirish, ularning faoliyatini moddiy-moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ilmiy-metodik ta’minlash ko‘zda tutilgan.

Boshlang‘ich ta’lim darslarini o‘qitishning interfaol usullari asosida tashkil etish ularda tashkil etiladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchiilariga bilim berish va ularni tarbiyalashda samaradorlikka erishishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo‘lib, bunda bir qator pedagogik vazifalar hal etilishi lozim. Ular quyidagilardan iboratdir:

- boshlang‘ich ta’lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasida muayyan shart-sharoitlarni yaratish;
- boshlang‘ich ta’lim tabiat darslari pedagog xodimlari o‘rtasida interfaol metodlar mohiyatini ohib berishga qaratilgan maxsus o‘quv seminarlarini tashkil etish;
- ular tomonidan pedagogik texnologiya asoslarini puxta o‘zlashtirilishiga erishish;
- boshlang‘ich ta’lim darslari pedagoglarida ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondoshuv hissini tarbiyalash;
- boshlang‘ich ta’lim darslarining o‘qituvchilarida texnologik yondashuv asosida tashkil etish kqnikma va malakalarini hosil qilish;
- boshlang‘ich ta’lim darslari o‘qituvchilarini tomonidan ta’lim-tarbiyaviy ishlarni interfaol metodlar asosda tashkil etilishiga erishish;
- boshlang‘ich ta’lim darslari o‘qituvchilarining texnologik asosda pedagogik faoliyatni tashkil etish borasidagi mahoratlarini oshirish;

- boshlang‘ich ta’lim darslarining samaradorligini ta’minlash

Boshlang‘ich ta’lim darslari o‘qituvchilari o‘rtasida interfaol metodlar va ularning mohiyati xususidagi nazariy ma’lumotlarni targ‘ib etish muvaffaqiyatini pedagogik jamoa, shuningdek, individual pedagog xodimlarda ularni o‘rganishga nisbatan ehtiyoj, qiziqishning yuzaga kelishini belgilaydi. Yuzaga kelgan ehtiyoj hamda qiziqish ularni qondirish imkonini beruvchi amaliy faoliyatni tashkil etishga nisbatan qaror toptiradi.

Boshlang‘ich ta’lim darslari o‘qituvchilarida pedagogik faoliyatni interfaol metodlar asosida tashkil etish malakasini shakllantirishga quyidagi tamoyillarga amal qilish asosida erishiladi:

1. Boshlang‘ich ta’lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi yagona maqsadning qaror topganligi.
2. Boshlang‘ich ta’lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi harakatning izchil, maqsadga muvofiq, tizimli va uzlucksiz amalga oshirilishi.
3. Boshlang‘ich ta’lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etishda mavjud shart-sharoit hamda sub’ektiv yondashuvlarni inobatga olish.
4. Pedagogik mahorat va iqtidorlarni erkin namoyish etish.
5. Yangi tajribalarni ommalashtirish.
6. Nazariy va amaliy faoliyat birligi.
7. Boshlang‘ich ta’lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etishda xorijiy mamlakatlarning donor tashkilotlari bilan hamkorlik va hokazolar.

Boshlang‘ich ta’lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish quyidagi omillar asosida amalga oshiriladi:

1) Ob’ektiv omillar:

- Boshlang‘ich ta’lim darslarida moddiy-texnik bazaning yaratilganligi;
- Ta’lim- tarbiya jarayonining zarur texnik hamda axborotli vositalar bilan ta’minlanganligi;

- Boshlang‘ich ta’lim darslarida pedagogik monitoring (ma’lumotlar banki)ning tashkil etilganligi, uning maxsus adabiyotlar bilan boyitilganligi;

2) Sub’ektiv omillar:

- boshlang‘ich ta’lim darslarining o‘qituvchilarida PT mohiyatini o‘rganishga nisbatan ichki ehtiyoj va qiziqishning yuzaga kelganligi;
- Ularda o‘z faoliyatlarida PT lardan foydalanishga nisbatan rag‘batning qaror topganligi;
- kasb-hunar kolleji rahbariyati va jamoasining o‘quv yurti faoliyatini interfaol metodlar asosida tashkil etish yo‘lidagi birligi va yakdilligining shakllanganligi;
- boshlang‘ich ta’lim darslari o‘qituvchilarining PT mohiyatidan xabardorliklari;
- ularda o‘z faoliyatlarini texnologik yondashuv asosida tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarning tarkib topganligi;
- Boshlang‘ich ta’lim darslari o‘qituvchilarining o‘z pedagogik faoliyatlarida PT ni qo‘llay olish mahoratiga egaliklari;
- ularda ijodkorlik, izlanuvchanlik, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchiilari orasida ko‘tarinki kayfiyatni yarata olish sifatlarining mavjudligi;
- PT asosida pedagogik faoliyatni tashkil etayotgan o‘qituvchilarni rag‘batlantirib borish va hokazolar.
- boshlang‘ich ta’lim darslari o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatni interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi mahoratlari darjasasi quyidagi ko‘rsatgichlarga muvofiq belgilanadi:

Boshlang‘ich ta’lim darslari o‘qituvchilari tomonidan yangi pedagogik texnologiya nazariyasi, uning mohiyati, ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalash, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini oldindan tashhislash, ular tomonidan tashkil etilayotgan o‘quv faoliyati mazmunini nazorat qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash, pedagogik faoliyat samaradorligini aniqlash borasidagi nazariy bilimlarning o‘zlashtirilishi;

- boshlang‘ich ta’lim darslari o‘qituvchilarida boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari bilan muloqotni muvaffaqiyatli tashkil etish, pedagogik faoliyatga nisbatan ijodiy yondoshuv, pedagogik vaziyatlarni baholay olish va ularga muvofiq xattiharakatni tashkil etish malakalari shakllanganligi;
- Pedagogik faoliyat mazmuni, ko‘lami, sur’ati hamda samaradorliginining yuqori darajasi.

Tadqiqot muammosini nazariy-amaliy asoslarini o‘rganish natijasida shu holat aniqlandiki, pedagogik texnologiyalar mohiyatini boshlang‘ich ta’lim darslari pedagoglari o‘rtasida targ‘ib qilish jarayonida ijtimoiy-gumanitar fanlarga nisbatan tabiiy fanlar o‘qituvchilari mazkur pedagogik texnologiyalarning nazariy-amaliy asoslarini tez va puxta o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘lganlar. Buning boisi, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchiilariining bilim, ko‘nikma va malakalari, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorlik drajasini aniqlashga yo‘naltirilgan metodlarning statistik xususiyatga egaligidadir. Tabiiy fanlar o‘qituvchilarining texnik va axborot vositalari bilan ishlay olish tajribasi va mutaxassislik ma’lumotlariga ega ekanliklari ularni interfaol metodlar borasidagi bilimlardan xabardor etish jarayonida ma’lum qulayliklarni yaratdi. Boshlang‘ich ta’lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish jarayonidagi imkoniyatlar va tajribalarga tayanish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Xususan, o‘quv fanlari bo‘yicha tashkil etiladigan mashg‘ulotlarning loyihasini ishlab chiqish, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchiilarining faoliyatlarini nazorat qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash hamda darslarining samaradorligini aniqlashga imkon beruvchi dasturlarni tuzishda tabiiy fanlar o‘qituvchilarining o‘rni beqiyosdir.

## **1-bob bo‘yicha xulosa**

Bu bobda biz a’nanaviy darslar tarixi va interafol darslarning boshlang‘ich sinflarda qo‘llanishi haqida to‘xtalib quyidagi xulosalarini chiqardik.

1. Boshlang‘ich sinf darslarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri ta’lim berish faoliyati bo‘lib, bu jarayonni interfaol metodlar asosida tashkil etish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarilaring dunyoqarashlarni shakillantirish orqali bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga erishish lozim.
2. Boshlang‘ich sinflarda darslarni tashkil qilishda o‘qituvchilarining pedagogik texnologiyalar mohiyatidan xabardor etishga yo‘naltirilgan maxsus tadbirlarning uyuştirilishi maqsadga muvofiqdir.
4. Boshlang‘ich sinf darslaridagi tarbiya jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish dolzarb muammolardan biri bo‘lib, ushbu maqsadga erishish tarbiyaviy ishlar samaradoriligini oshirishga imkon yaratish lozim.
5. Boshlang‘ich sinf darslaridagi tarbiya jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o‘qituvchilarga tarbiyaviy ishlar jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasida nazariy-amaliy bilimlar berish asosida yo‘lga lozim.
6. Boshlang‘ich sinf darslarini tashkil qilishda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi tarbiyaviy ishlar jarayonini loyihalashtirish ko‘nikmasi, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni hosil qilishga interfaol metodlar asosida tashkil etilgan dars treninglarni tashkil etish maqsadga muovfiqdir.

## **II-bob.Boshlang‘ich sinf darslarining takomillashtirishga integratsion va innovatsion yondoshuv.**

### **2.1.Boshlang‘ich sinfda darslarini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.**

Innovatsion pedagogika hozirgi davirda norasmiy fan sfatida ma'lum bo'lgan biroq kun sayin butun jahon soha mutaxasislarining etiboriga tushib jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir. Uning ta'limiy ahamiyatini tan olgan pedagoglar jamoasi olimlar shu boisdan ham mavjud ananaviy pedagogikaga tanqidiy yondashmoqdalar. Hozirgi kunlarda shakilanib rivojlanib borayotgan mazkur yangi fan haqida jiddiy fikrlar bildirilyapti uning asosiy vazifasi xukumron bo'lib turgan butun o'quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsiya asosida qayta tashkil etib o'zlashtirishdir. Innovatsion pedagogika – hukumron nazariya nazariy va amaliy muammolarni hal etishning asosi qilib olingan. Innavorlar fikricha asosan adbiy mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo'l bilan tarbiyalash mumkin emas. Hozirgi pedagogika fanidagi vaziyat umumiyl holda shundan iborat. Bu vaziyatda innovatsiya juda muhim pedagogika – bilimlar tizimidir obektivlik maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik bir-biriga zid bo'lmaslik uning asosiy harakteristikalaridir “Pedagogika tizimini har qanday ilmiy nazariya kabi tizimini tashkil etuvchi tamoyillari loyhalashtiradi va ushlab turadi yani ushbu tizim asosiy bilimlarga asoslanishi asosiy holdir obektiv nazariyaning asosiy tamoyillarini faqatgina ilmiy purintsin bo'linish shart ammo g'oyaviy bo'lmasligi lozim insonning aqliy rivojlanganligi va tarbiyasi haqidagi bilim darajasining talabga muvofiqdir obektivlikning yagona talabidir. Idealogiya bu har doim ham u yoki bu ijtimoiy guruhlarning bir tomonlama ijtimoiy qiziqishlari bo'lib ular buni qimmatli yo'l-yo'riq va g'oya sfatida boshqalarga majburlaydilar. Jahon pedagogiknazariysi tarbiyaviy jarayon shrti bilan bog'liq yuqorida turgan odamlarning g'oyalari qanday bo'lishi bilan bog'liq allaqachon etirof etganligi. O'sib borayotgan avlodlar tarbiyasi juda jiddiy ish bo'lib uning o'tkinchi narsalarga bog'liq etib qo'yish mumkin emas. Mustabidlik davrida

mamlakatimizda ko'p vaqt insonni komunistik g'oyalalar ruhida tarbiyalashga oid pedagogik ko'rsatmalar ustun bo'lib kelgan uning juda ta'sirligi turli chaqiriqlarni hayotga tatbiq etish kabi maqsadga qaramay uni ilmiy deb bo'lmaydi, chunki bunday g'oyalarni tashkil etuvchi qoidalar inson tabiatini va uning rivojlanishi haqidagi tizimini faqatgina fan o'rnatgan obektiv asoslar va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar yordamida rivojlantirish mumkin. Ma'lum bo'lishicha amaliyotda yo'l ko'rsatuvchi pedagogik nazariyalarimizning asosiy kamchiliklaridan biri bilim va ta'limning ustunligini qattiq bo'rtirib yuborishdadir insoniy manaviy mehnat tarbiyasi zarariga bilimda yodlab olish hajmi ko'payib borishi maktab hayotida odatiy hol bo'lib qoldi. Hozirgi tarbiya va u boshqarayotgan amaliyotning hamma belgilari bo'yicha inqiroz holatda ekani ko'rinish turibdi. Bu holatdan chiqish uchun bo'lgan har qanday harakat innovatsion deb hisoblanayapti va bu holda ular o'z nomlariga mosdir. Innovatsion pedagogikani ko'pincha ananaviy muqobil pedagogika deb ataydilar. Bu fikirga qo'shilmaslik mumkin emas hech bo'limganda eng oddiy tushunchalar bo'yicha sinf ham o'qituvchi ham, dars mazmuni va darsliklar yo'qolib ketmaydiku. Agarda pedagogik tizim saqlanib qolsa unda faqat uni mukammallashtirish haqida gapishtirish mumkin faraz qilayotgan rivojlanish strategiyamiz rivojlantiruvchi o'qitish yo'naltirishlaridan end avvalo o'z intilishlarini mактабда o'qishga boshlashgacha yaxshi rivojlangan tuzulmalarini shakillantirish hamda bu harakatlarga endi paydo bo'lib kelayotgan jarayonlarni uyg'unlashtirib olib borishga qaratilgan strategik yo'limiz. Butun taraqqiyotning o'z avlodlari haqidagi g'amho'rligi mantiqiga asoslangan didaktik va pedagogik tizim tuzishga amal qilishdir huddi ana shuning uchun ham metodologik asos negizi sifatida keng ma'noda tabiyatni o'rgatuvchi soha bo'lib halq pedagogikasi hisoblanadi. Bolalar qanday bo'lib tug'ilish uning ota-onasidan bo'lak hech kimga bog'liq emas, lekin har bir insonning yetarlicha rivojlanishi barkamol shaxs darajasiga yetishi o'zicha yoqqan mashg'ulot va hayotda o'z o'mini topishi o'z umrini hayotiy meyorlarga munosib o'tkazishi, avvalo maktabga bog'liq. Har bir bola shaxsni sevish hurmat qilish va uning rivojlanishi uchun zaroitlarni

yaratib berish lozim. Agarda tabiatni o'rgatuvchi pedagogik moslashishni talab etmagan bo'lsa gumonistik pedagogika bu masalani munosabatlar markaziga qo'yishni va bola meyoriy darajada rivojiana olishi uchun hamma ishni qilishni talab qildi. Gummanistik pedagogikani ko'pincha innavatsion deb ataydilar, lekin innavatsionligi faqatgina ayrim ta'lif tizimlariga aloqador. Hozirgi zamon G'arb mamlakatlari ta'lif tizimlari uchun esa allaqachon gumonistik yo'nalishga o'ta boshlagan. Ta'lif asta-sekin yangi munosabatlarga aylana boshlagan. Gummanistik pedagogikani innavatsion pedagogika deb atalgan so'zining to'la ma'nosida aytish mumkin u tashqarida "inektsiya" talab qilmaydi yuqori o'quv tarbiyaviy ta'sir natijalari tizimining ichki qayta tashkil etilishi evaziga erishiladi. Gummonizm dunyodagi eng qimmatli ma'naviy boyliklar yagona kantseptsiyasi. Bu kantseptsiyaning asosiy qoidasi shaxs qadr qimmatini himoya qilish, uning erkinlik, baxt, rivojlanish va o'z qobiliyatini namoyon etish, huquqini tan olish buning uchun zarur qulay sharoitlarni yaratib berishdir. Gummonizm inson turmushi yagona va hususan alohida shaxs uchun ahamiyat umumiy ekanligini tasdiqllovchi g'oya va qadriyatlar yig'indisidir. Qimmatli yo'naltirish va ko'rsatmalar tizimi sfatida gummonizm ijtimoiy g'oya mazmunini oladi. Gummonistik pedagogik o'quv tarbiya jarayoni ishtirokchisini o'z imkoniyati bo'yicha rivojlantiruvchi teng huquqli ongli faol tarbiyalanuvchining yetishib chiqishiga ro'l o'ynovchi ilmiy-nazariy tizimidir. Inson qadr-qimmatini eng yuqori o'ringa qo'yilgan bizning davlatimizda insonparvarlik nuqtai nazaridan tarbiyaning asl maqsadi har bir tarbiyalanuvchi munosabatlar o'zlashtirish faoliyati to'la huquqli subekti mustaqil erkin shaxs bo'lib yetishishidan iborat. Tarbiya jarayoning insonparvarlik darjasini ushbu jarayon shaxsi o'zini nomoyon eta olishi o'zidagi hamma tabiiy imkoniyatlarini ochib bera olish uning erkinlikka qobiliyati ijodga masulliyatini ochib berish uchun shart-sharoit yaratib berishi bilan belgilanadi va baholanadi. Insonparvarlik pedagogikasi shaxsga qaratilgandir. Uning belgilari ma'lumotlar egallab olish va ma'lum doiradagi mahorat va ko'nikmalar yuzaga keltirish o'miga texnik jismoniy intelektual rivojlanishga diqqatning qaratilishi erkin mustaqil fikirlovchi va harakat qiluvchi

shaxisni shakillantirishga qaratilgan kuchlarni jamlash har qanday hayoti va o'quv vaziyatlarida asoslanganqarorini tanlab qabul qila oladigan inson parvar fuqoro bo'lib yetishish o'quv tarbiya jarayonini muvoffaqiyatli qayta yo'naltirishga erishish uchun kerakli tashkiliy shart-sharoitlar bilan taminlash, o'quv-tarbiya jarayoning insonparvarlashtirishni avtaritar pedagogikadan uning shaxsiga pedagogik bosimdan vos kechib o'quvchi va pedagog o'rtasida haqiqiy insoniy munosabatlar o'rnatish o'quvchi faoliyati va shaxsiy yorqinligiga asosiy ahamiyat kasb etuvchi shaxsga qaratilgan pedagogikaga o'tish deb tushunish kerak. Bu jarayonni insonparvarlashtirish shunday shunday sharoit yaratish deganiki bunda o'quvchi ilm olmasligi imkoniyatlaridan past darajada olmasligi mumkin emas, tarbiyaviy ishlarga befarq yoki muddatli o'tib boruvchi hayotda kuzatuvchi bo'lib qolishi mumkin emas gumonistik pedagogika matabni o'quvchiga moslashuvi qulay sharoit va "psixologik ximoya" bilan taminlashni talab qiladi. Insonparvarlik maktabi amaliyotini innavatsion faoliyatining anq shakil va uslublarini ishlab chiqishning ba'zilari keltirilgan;

1. O'quv-tarbiya faoliyatini defferentsiyalash;
2. O'quv-ta'lism jarayonlarini har bir shaxs xislatiga qarab muvoffiqlashtirish;
3. Har bir tarbiyalanuvchini va qiziqishini rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratib berish;
4. sinflar va shunga o'xshashlarni tashkil etish;
5. O'quv-tarbiya faoliyatining qulayligi;
6. Psixologik xavfsizlik o'quvchilarni himoyalash;
7. O'quvchiga uning kuchi va imkoniyatlariga ishontirish;
8. O'quvchini qanday bo'lsa shunday qabul qilish;
9. Ta'lism-tarbiya muvoffaqiyatini ta'minlash;
10. Maktab maqsad yo'nalishini o'zgartirish;
11. Har bir o'quvchi rivojlanish darajasining asoslanishi;
12. sirtqi ta'limgan ekstronat "o'quvchi bilan ma'naviy aloqasi yo'q" ta'minlanmasligi sababli to'xtatish, yo'qotish;

13. O'quvchi shaxsiy ichki yo'-yo'riq ko'rsatmalarini qayta yo'naltirish;
14. Insonparvarlik ta'limini kuchaytirish insonparvarlik pedagogikasini statistik baholash juda qiyin. Ammo shu narsa aniqlanganki autotreningga simpatiya va so'zsiz maqullash o'quvchilar rivojlanishi bilan moslashib bog'lanib ketishi va intizom maktabga salbiy munosabat kabi muammolar bilan yomon moslashuvi aniqlangan.

Innovatika muammolariga murojat etish va ularni muhim zamonaviy ilmiy fikirlash yo'nalishlariga qo'shish jamiyatda innovatsion jarayonlar dindmikasi o'sib borayotganini tushunish natijasi bo'ldi. Bizning adabiyotlarimizda innovatsiya muammolar ko'p vaqtgacha iqtisodiy tadqiqotlar tizimida o'rnatib kelindi. Ammo vaqt o'tishi bilan jamiat hayoti faoliyatining hamma sohalarida innovatsion o'zgarishlar sifat harakteristikalarini baholash muammosi yuzaga keldi, ammo bu o'zgarishlarni faqatgina iqtisodiy nazariyalar bilan aniqlab bo'lmaydi. Innovatsion jarayonlari o'rganish uchun boshqa yo'llar zarur unda innovatsion taxlil faqatgina fan va texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishining o'z ichiga olmay, balki boshqarish ta'lim, huquq va boshqa sohalarni ham qamrab oladi. Innovatsion pedagogik muammolarini yechilishini izlash ta'lim sohasida innovatsion jarayonlar borishi hususiyatlari mazmuni tarkibi va klassifikatsiyasini tekshirish natijalarini tahlil analiz qilish bilan bog'liq. Innovatsion tushunchasi birinchi marta XIX asrda madaniyatshunoslar o'rganishlarida paydo bo'ldi, bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma'nosini bildirgan. Uning bu ma'nosi hozirgacha etnografiyada saqlanib qolgan. XX asr boshlarida yangi bilim sohasi yangiliklarni kiritish, qo'llash yuzaga keldi. U maxsulot ishlab chiqarish sohasida texnik yangiliklarni kiritish qonuniyatlarini o'rgana boshladi, yangiliklarni kiritish haqidagi fan innovatsia firmalarining yangi reja hizmatlarni ishlab chiqish va tatbiq etish faoliyatiga talablarni keskin oshib borishi aks etirilgan holda paydo bo'ldi. 30 yillarda AQShda "firma innovatsion siyosati", "innovatsion jarayon" atamalari paydo bo'ldi, 60-70 yillardan g'arbda firmalar va boshqa korhonalar amalga oshirilayotgan yangiliklarni empirik tekshirishlar keng quloch yoyadi. Shu bilan birga diqqat ikki asosiy tekshirishlar sohasiga qaratiladi, ularning har birida o'z

nazariy metodologik ustun turadi. Firma yangiliklarni kiritish tashabbuskori va yaratuvchisi sfatida bo'lib, uning yangiliklarini kiritishga "sezuvchanligini", "ta'sirchanligini" va bu ta'sirchanlik bog'liqligiboshqarishning tuzilishi va uslublari bilan bog'liqdir. Tekshirishlar dasturi sfatida "qaror qabul qilish jarayoni" kontsepsiysi hisoblanib bunda alternativalarni tanlash va analizim qilish qabul qilingan qarorlarni ketma-ket bosqichlar bilan amalga oshirishga o'tiladi marketing yoki firmaning bozorga yangilik kiritishga tavakkalchilik omillari kiritilayotgan yangiliklar muvoffaqiyatini oldindan bilish metodlari alohida bosqichlar samaradorligi iqtisodiy ko'rsatkichlari va yangilik kiritish umumiyligiga ustun turuvchi tekshirishlar paradigmasi bo'lib, ochiq tizim va o'yin sfat yondashuv nazariyasi hisoblanadi unda firmalar bozor bilan o'z muhitlari sfatida o'zaro munosabatda bo'lib va u yerda innovatsion jarayonning yakunlovchi bosqich ko'pincha subektlar o'zaro bog'liqligi natijasi bo'lib qoldi bu subektlarning har biri o'z manfatiga qarab ish olib boradi va o'z sheriklari harakatlarini ehtimolini hisobga oladi. Bu ikki sohada yangiliklarni kiritishni amaliy tekshirishlar bir qator fanlar nazariy yangiliklaridan foydalanadilar. Ular turmush va mehnat tehnik vositalari rivojlanishi qonuniyatlariga murojat etib o'rganilayotgan tehnik tarihi va ijtimoiy o'zgarishlar o'zaro bog'liqligini o'rganadilar yangiliklarni kiritishni boshqarish amaliyotiga yangi g'oyalarni tag'batlantiruvchi omillar va uslublar haqidagi sotiolog va ijtimoiy psixologlar xulosalarini innovatsion yangilik kirituvchilar va boshqa ishtirokchilar hislatlari haqidagi mulohazalarini faol tadbiq etadilar.

### **Innovatikaning asosiy tushunchalari**

**Yangilik:** g'oya, aniq bir shaxs uchun yangilik, vosita (yangi metod)

**Innovatsiya:**

- Yangilanish, o'zgarish;
- Biror – bir yangilikni kiritish;
- Yangilikni o'zlashtirish jarayoni.

**Innovatsiya** – (inglizcha Innovation – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion

jarayonning mazmuniy tomonini o‘z ichiga oladi (ilmiy g‘oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish).

**Pedagogik yangilik** – pedagogik faoliyatda ilgari ta’lim jarayonida noma’lum bo‘lgan o‘zgarishlarni kiritish orqali ta’lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir.

**Innovatika** – yangilikni yaratilish qonuniyatlarini o‘zlashtirishni va targ‘ib – targ‘ibotini o‘rganadigan fan.

**Innovatsion jarayon** – yangilikning kiritilishi va shart – sharoitlari, tizimni yangi ko‘rsatgichlarga muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlovchi o‘zgarishdir. Innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amaliyotga kiritish jarayonidir.

**Innovatsion faoliyat** – yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorlarining mavjud me’yorlar bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir (V.I.Slobotchikov).

O‘qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o‘quv jarayonini sifatli va samarali tashkil etishdan iborat. Bu faoliyat shaxsan o‘qituvchini o‘zigagina ta’luqli bo‘lib qolmay, bir qator shaxs, guruh, omma, institutsion masshtabda ham bo‘lishi mumkin.

### **Yangilikni kiritish:**

- Innovatsiyadan foydalanish mexanizmi (yangilikni va uning jarayonini amaliyotga kiritish);
- Maqsadli o‘zgartirish bo‘lib, ma’lum sotsial – ijtimoiy birlik (muassasa, jamoa, guruh)ga yangilik kiritish, uni yangi stabil rivojiga olib keladi (A.I.Prigojin).
- Yangilikni tarqatish va foydalanish orqali aniq maqsadga yo‘naltirish bilan odamlar ehtiyojini yangi vositalar bilan ta’milanadi. Bu kiritilgan yangiliklar ma’lum sifat o‘zgarishlarga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida pedagogik ish faoliyatini sifat va samaradorlikni ta’minlashga, stabil holatda ish yuritishga, hayotiy talablarga javob berishni ta’minlaydi (V.A.Slastyonin, P.S.Podlyanova).

- Dinamik sistema bo‘lib, innovatsion jarayonni bosqich va strukturasini atrof muhit bilan o‘zaro ta’sirida yangilanish va rivojlanish rejimida ishlashni ta’minlaydi.

**Innovatsiyaning maqsadi** – sarflanayotgan mablag‘ va kuchdan eng yuqori va sifatli natija olishdan iborat. Innovatsiya – boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o‘zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

**Innovatsion muhit** – bu pedagogik jamoada, umuman ta’lim muassasasida shunday ijodiy, samimiy, do‘stona sharoit tug‘diradiki, unda o‘qituvuchi o‘zini erkin xis qiladi, jamoada ichki intilish, moddiy, ma’naviy qiziqish yuqori darajada bo‘ladi. U muhitda o‘qituvchi ijodiy fikr yuritishga, ishlashga tayyor bo‘ladi.

**Novatsiya** – agar islohat faoliyatining shakli, mazmuni va ko‘lamni qisqa muddatli bo‘lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lmasa, u o‘z oldiga muayyan mavjud tuzumdagagi faqat ba’zi elementlarni o‘zgartirishni vazifa qilib qo‘ygan bo‘lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqat qilayotgan bo‘lamiz.

**Novator** – yangilikni qabul qilish va amalga oshirishga tayyor shaxs. O‘z shaxsiy ped amaliyotida doimiy yangilik izlaydi, o‘zlashtiradi, qo‘llaydi. Innovatorlar yangilkardan yaxshi xabardor va ular bilan kommunikativ muloqot o‘rnatadi. Ishni yaxshilash maqsadida tavakkal shaklda ish tutadi. O‘quv jarayonini taraqqiyoti va rivojlanishi uchun yangiliklarni loyihalaydi, zarur hollarda izlab, tanlay oladi.

**O‘zgarish** – biror bir mavjud narsani boshqasiga almashtirish (o‘zgartirish va variatsiyalash), ilgari mavjud bo‘lganidan boshqacharoq ko‘rinishda (avvalgiga ko‘ra yaxshi tomonga o‘zgargan, ya’ni yangicha ko‘rinishda).

**Islohat** – keng masshtabli, butun sistemani qamrab oladi. Natijada sistema yangi ko‘rinish oladi.

**Yangilik** – ilmiy tadqiqotning yakuniy baholash mezonidir. Yangilikning qiymati va xususiyati aniq mantiqiy ketma – ketlikdagi rivojiga ega bo‘lib, u butunlay yangilanadi yoki nisbatan yangilangan bo‘ladi.

### **Innovatsiyalarning belgilari:**

a) Aktual muammolarni hal etishga qaratilganligi (pedagogik innovatsiya muammolarini mazmunini yangicha yechimini amalga oshirishga qaratiladi).

b) Pedagogik amaliyotda keng qo'llanish imkoniyati ochiladi.

Pedagogik innovatsiyalar jarayonining o'zgarishi yangilanishga olib keladi. Natijada yangi (stabil) sifatga ega bo'lgan natijalar qo'lga kiritiladi. Innovatsiyani sistemaning turli predmetlariga ta'siri yangi samaradorlikka olib keladi.

c) Moslashuvga (qanday sharoitda bo'lishidan qat'iy nazar).

d) Ishning poyoniga yetishiga (innovatsiya to'liq potensialli tatbiq etish darajasiga yetadi).

**Yangilikning o'ziga xosligi** (V.A.Slastyonin, L.S.Podylmova, A.I.Prigojin va b.):

- Pedagogik yangilik innovatsiyaning barcha xususiyatlarini o'zida saqlab qoladi.

- Predmet faoliyatining ob'ektiga ta'siri - shaxsning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etadi.

- Yangilikning mavjudligi va uni kelib chiqishi – ijtimoiy buyurtmaga ta'sir qiladi.

- Pedagogik jamoatchilik yangilikni qabul qilish va tatbiq etishga psixologik jixatdan tayyor bo'lishi kerak.

- Novatorlarning yangiliklari – ularning eng yuqori mahsulotlari deb qabul qilinishi kerak.

- Innovatsion jarayonlarni tatbiq etilishini uzoq muddat cho'zilishlari kuzatiladi.

- Innovatsiyalarning maqsadlari – qiymatli xarakterga ega.

- Innovatsion jarayonlarning ijtimoiy – pedagogik shart – sharoitlar bilan o'zaro bog'langanlidadir. Shuningdek innovatsiyalarning pirovard natijasini aniqlash ham juda murakkabdir.

**Ta'lim tashkilotlariga yangiliklarni kiritish bosqichlari**

S.D.Polyakov tomonidan yangiliklarni kiritish modeli ishlab chiqilgan va u to‘rt bosqichda amalga oshiriladi.

**Birinchi faza** – yangi g‘oyalarni izlash. U o‘z navbatida:

1. Axborotlar fondini yaratish. O‘qituvchilarni ta’limda innovatsion jarayonlar rivojlanishiga bag‘ishlangan konferensiya, amaliy seminar, treninglarda ishtirokini rag‘batlantirish.

2. Ta’lim muassasasini innovatsiyalarga bo‘lgan extiyojini aniqlash, metod birlashma, markazlar, tuman, shaharlardagi internet orqali innovatsion banklar bilan aloqa o‘rnatish.

**Ikkinchi faza** – yangilikni kiritishni shakllantirish. U o‘z navbatida uch bosqichni o‘z ichiga oladi:

1. Tahlil va loyihalashtirish. Yangilikni kiritish g‘oyalarini shakllantirish va o‘quv yurtini ichki imkoniyati, ishni borish jarayonini loyihalash.

2. Innovatsion g‘oyani novator o‘qituvchilar ijodiy guruhi bilan aprabatsiyadan o‘tkazish.

3. Aprabatsiya o‘tkazilgan amaliy ishni yakunini chiqarish, shu asosda yangilikni keng miqyosda o‘tkazish bo‘yicha qaror qabul qilish va uni amalga oshirish bo‘yicha dastur ishlab chiqish.

**Uchinchi faza** – yangilikni amaliyatga kiritish.

1. Boshqaruв resurslari. Keng masshtabli yangiliklarni amalga oshirishda boshqaruв resurslari ishga solinadi. U holda rahbar tashabbus va mas’uliyatni o‘z bo‘yniga oladi va butun pedagogik jamoani ekperimentga jalg etadi, qatnashishni talab etadi.

2. Innovatsion o‘quv. Innovatsion texnologiyalarni o‘qish – o‘rganish butun pedagogik jamoani jalg qilish orqali amalga oshirish yaxshi samara beradi. Bu jarayonni amalga oshirishda rahbarning avtoriteti muhim rol o‘ynaydi.

**To‘rtinchi faza** – yangilikni joriy etishni mustahkamlashdan iborat.

Bu fazada yangilikni o‘qish – o‘rganish butun pedagogik jamoa qatlamin to‘la qamrab oladi. Xattoki yangilikka qarshi bo‘lganlar ham bu jarayonga jalg etiladi. Bunday hollarda maktab rahbarini vazifasi ikki barobar oshib, u faqatgina

tashkiliy pedagogik ishlar bilan chegaralanib qolmay, bir vaqtning o‘zida ruxiy psixologik muhit yaratishi, ijodiy yondashuv asosida ish yuritishga to‘g‘ri keladi. Shunda mакtabda yangilik tizimiga adaptatsiya qilishga optimal sharoit yaratish zaruriyati tug‘iladi. Bu holat bir tomondan pedagog va o‘quvchilar bilan psixokorreksion ishlarni o‘tkazish, yangicha sharoitda, yangicha fikr yuritish, yangicha ish yuritadigan o‘qituvchi va pedagogik jamoani shakllantirish eng muhim zaruriy shartlardan bo‘lib qoladi.

Biz hozir ko‘rib chiqqan model innovatsion jarayon rahbarlar tomonidan tashkil etiladigan, ularning tashabbuslari bilan “yuqoridan” yangilikni o‘quv jarayoniga kiritishdan iborat.

Innovatsion jarayonni, yangilikni yuqoridan emas, pastdan, o‘zini – o‘zi rivojlantirish prinsipidan kelib chiqib innovatsion g‘oyani ma’lum guruh o‘qituvchilar tashabbus ko‘rsatib, ishlay boshlaydilar. Innovatsion g‘oyani amalga oshirish ishlarini boshqa hamkasblari qo‘llab – quvvatlab, ular ham shu yo‘sinda ish tuta boshlaydilar.

Bunday holatlarda bir guruh o‘qituvchilar ham yangicha ishslash ishtiyoqi bilan tajriba – sinov ishlarini amalga oshiradilar. Shu asosda mакtab o‘quv jarayoniga yangilikni kiritish ishlari boshlanib ketishiga sabab bo‘ladi. Albatta bu holatda ham yangilikni tatbiq etishda qarama – qarshiliklar bo‘lishi mumkin. Bunday holatda ko‘pchilikning fikrlari g‘olib chiqadi. Va asosda yangilikni zarurligi, o‘z vaqtida amalga oshirish ta’lim sifatiga erishish garovi ekanligiga ishonch hosil qilinadi.

Yuqorida keltirilgan “yuqoridan” tashabbus asosida yangilikni o‘quv jarayoniga qo‘llanishini “pastdan” tashabbusga nisbatan qarama – qarshi qo‘yish mumkin emas. Ammo yangilikni yuqoridan markazlashtirilgan holda kiritilganda o‘qituvchilarning innovatsion tashabbuskorligi pastroq darajada bo‘lishi kuzatiladi.

Shu sababli mакtab rahbarlari yangiliklarni pedagogik faoliyatga kiritishni rejalashtirishda: yangilikni maqsad va vazifalarini, uni o‘quv jarayoniga kiritishning real imkoniyatlari, ped.jamoa uchun ijodiy muhit yaratish, ta’lim –

tarbiyaviy ishlarni yangicha ishslash modelini, maktabning moddiy – texnik imkoniyatini, tajriba – sinovni olib borish texnologiyasini boshidan oxirigacha mantiqiy ketma – ketligini ped.jamoaning o‘zi bilan hamkorlikda ishlab chiqishi kerak. Kelgusida maktab rivojlanuvchi rejimida ishlashi, sifat samaradorlikni kafolatlashiga ishonch hosil qilishi kerak. Pedagogik jamoa esa, ijodkor o‘qituvchidan – ijodkor pedagogik jamoa majmuasiga aylanishiga ishonch hosil qilishi kerak.

Pedagogik innovatika pedagogikaga nisbatan yangi shakllanayotgan fandir. Uni paydo bo‘lganiga 15 yillar bo‘lgan. Umuman innovatika fani oldingi asrning 80 yillarida paydo bo‘lgan. O‘zbekistonda esa mustaqillik yillarida shakllana boshladi.

Innovatika fan sifatida yangiliklarni yaratilish qonuniyatlarini, ularni o‘zlashtirish va tarqatish, tatbiq etish jarayonini o‘rganadi. (V.A.Slastyonin, P.S.Podymova)

Avvalo innovatsiyalar novator, bunyodkor, izlanuvchan ijodkor, yil o‘qituvchilari ko‘rik tanlovlarda ishtirok etgan o‘qituvchilar faoliyatida kuzatiladi. Hozir mamlakatimizda innovatsion texnologiyalar iqtisodchilar, tadbirkorlar, fermerlar harakatlarida ham uchramoqda.

**Innovatsion jarayon** – innovatikaning kalitli tushunchasidir.

Innovatsion jarayon – yangilayotgan o‘zgarishlarga (yangiliklarga) tayyorgarlik ko‘rish va uni amaliyotga tatbiq etishga anglatadi.

Umuman “yangilik” kiritishni “innovatsiya”ning sinonimi deb qabul qilish mumkin.

Ta’limdagi innovatsion jarayonlarni asosiy uchta aspektida ko‘rib chiqish mumkin:

- Sotsial – iqtisodiy;
- Psixologik – pedagogik;
- Tashkiliy – boshqaruv.

Yuqorida keltirilgan aspektlar asosida innovatsion jarayonning borishi sharoitlarga bog‘langan holda kechadi.

Vujudga kelgan sharoit innovatsion jarayonga to'sqinlik qilishi yoki yangilikni tatbiq etishga olib kelishi mumkin.

Innovatsion jarayon stixiyali yoki oldindan puxta o'ylangan reja asosida ketishi mumkin. Shunga ko'ra boshqaruv jarayoni yoki sekinlashishi yoki jadallahishi kuzatiladi.

**Innovatsion jarayonni tashkil etuvchi yangilik yaratish, o'zlashtirish, yangilikni qo'llash** – hamkorlikda innovatika ob'ekti hisoblanadi. Pedagogik didaktikada esa o'qish jarayoni ilmiy tadqiqot ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Ana shu bilan ular bir – biridan farqlanadi.

**Innovatsion faoliyat** – ta'limning u yoki bu bosqichida innovatsion jarayonni amalga oshirishga yordam beruvchi kompleks choralar bo'lib, u jarayon ichida kechadi.

Innovatsion faoliyatning asosiyligi funksiyasi pedagogik jarayonni komponentlarini, ya'ni ma'no, maqsad, ta'lim mazmuni, shakli, metodi, texnologiyasi, ta'lim vositalari, uni boshqaruvarlari o'zgartirishdan iborat.

Innovatsion jarayonning o'ziga xosligi shundaki, u siklik xarakterli bo'lib, quyidagi etapli strukturada, yangilikni kirishi, vujudga kelishi, opponentlar bilan kurashda tezkorligi, yetilishi, o'zlashtirilishi, tarqalishi, yoki krizis, yoki finalga borishidan iborat.

Innovatsion faoliyat shunday vositalar yordamida kechadigan holatki, bunda pedagogik yangilanish g'oyasi paydo bo'ladi. U sotsial holatga undan ta'limdagি yangilikni tug'ilishi, paydo bo'lishiga olib keladi.

Innovatsion jarayonning ba'zi yangiliklari lokal tadqiqotlar o'tkazish va tajriba – sinovlar orqali tatbiq qilishdan farqlash kerak. Masalan mактабда qo'shimcha kursni innovatsion deb bo'lmaydi.

Shunday qilib biror g'oyani yangilik darajasida yaratib, faoliyatga olib kirib, u jarayonni boshqarib borish mumkin bo'lsa, innovatsion faoliyat hisoblanadi.

**Innovatsion muhit** – pedagogik yangilikning vujudga kelishi, ularning jadal o'zlashtirilishi va amaliyotga tatbiq etilishi.

**Innovatsion pedagogik loyiha** – qabul qilingan va qismlarga ajratilgan innovatsion pedagogik g‘oya, fikrlar majmuidir.

**Innovatsion pedagogik reja** – tasdiqlangan innovatsion o‘quv loyihasi.

**Innovatsion pedagogik g‘oya** – tizimlashtirilgan pedagogik g‘oyalar. O‘quv jarayoni bashorat etilishi, ma’lumotlar to‘plami.

**Innovatsion ta’lim** – 1) ta’lim sohasiga kiritilgan va kiritilayotgan yangiliklar; 2) yangilangan yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni.

**Innovatsion ta’lim muassasasi** – yangi tipdagi ta’lim muassasalari: akademik litseylar, maktabgacha ta’lim kompleksi, shaxsiy maktabgacha ta’lim muassasalari, ixtisoslashgan sinf va maktablar, gimnaziya, turli yo‘nalishli, predmetlari chuqur o‘rgatiladigan maktablar va x.k.

**Innovatsion texnologiya** – pedagogik taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy faoliy jarayoni (faoliy, didaktik o‘yinlar, evristik, kreativ, muammoli, loyihashtirilgan, AKT texnologiyalari).

**Innovatsion o‘qitish** – 1) yangicha o‘qitish tizimi, 2) o‘quvchi va talabalarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o‘qitish jarayoni (algoritmlash, loyihali, modulli va b.). Tajribalar shuni ko’rsatadiki har bir yaratilgan yangilik oldiniga albatta ilgarisidan ham yomon ishlaydi chunki o‘rganish moslashish sustkashlikni yengish kerak. Pedagogik tizimini takomillashtirishning asosiy yo’llari ikkita intensive va ekstensiv. Intensive rivojlanish pedagogik sistemanı ichki imkoniyatlar hisobiga ekstensiv yo’l esa qo’shimcha kuchlar jalb etish ya’ni vositalar asbob texnologiyalar hisobiga takomillashtirishni ko’zda tutadi. Pedagogik texnalogiyaning intensive rivojlanishi imkoniyatlari tutgan deb hisoblanadi. Maktabning mavjudligi ming yilliklar davomida hamma yo’llarni sinab ko’rib bo’lgan hozirgi pedagoglar nasibasi qaytarish tarbiya mazmuni va vazifasini mantiqiy chuqur esga olish uning birlamchi asoslariga chuqur tushib borishdan iborat yana bir bor qaytarib aytamiz agarda maktab ham o’limgan bo’lsa agarda u yashayotgan rivojlanayotgan va bolalarni o‘qitayotgan bo’lsa bu faqatgina o’zining konservativ tabiyati hisobigadir ba’zi nazariyachilar aytadilarki

juda vaqt ichida pedagogikada innavatsiya bir ma'noni orqaga o'tmishta o'yab va oqilona tarbiyalash ma'naviy tarbiyalovchi yangiliklarsiz va tirishishlarsiz tinch tizimga qaytishnigina bildiradi degan fikirni aytmoqdalar g'arb maktablari ekstensiv yo'l bilan pedagogik mahsulotni yangi texnologiyalar vaqtini turli hil o'quv faoliyatlariga taqsimlash sinifidagi differenzatsiya va individuallashtirish hisobiga oshirish bilan rivojlanib bormoqda. Shu bilan pedagogik mahsulot sifati yaxshilanmoqdagiki bu savol aniqligicha qolmoqda ko'pchilik mustaqil ekspertlar bunga ishonchini bildirmoqdalar. Bu holatdan chiqish yo'li "Integrirvange innavatsion yangiliklar" deb ataluvchi intensive va ekstensiv yo'llarni birlashtirishga imkon beruvchi pedagogik sistema rivojlanishi hisoblanadi bu pedagogikaning foydalanilmagan imkoniyatlarni chuqr tekshirishni talab qiladi ular turli ko'rinishdagi turli harakterli va turli darajadagi pedagogik tizim tashkil etuvchilari uchrashgan nuqtada namoyon bo'ladi. Bo'sh joylarini yangi texnologiyalar bilan mustahkamlab pedagogik sistemaning umumiyl samarasini yaxshilashga urinsa bo'ladi. Bunday yondashishdan innavatsiya o'yab topilgan "tashqi" chora bo'lib ko'rilmaydi balki chuqr mazmunlar talab va tizimni bilish anglab yetilgan qayta tuzish hisoblanadi. Agar shunday nuqtai nazar bilan innavatsion chaqiriqlarga qaralsa ularda deyarli yangi jihatlar yo'qdek tuyiladi. Jumladan eski muammolarni hal etish uchun yangi "retsept" lar ham yoq umuman olganda innavatsion g'oyalarga insoniyat taraqiyoti jarayoni haqidagi yangi bilimlarga asoslangan pedagogik muammolarni hal qilishga ilgari qo'llanilmagan nazariy yondashuvlar aniq amaliy texnologiyalardan olingan yuqori natijalarni kiritishga majburmiz. Pedagogika fanida berilgan g'oyalarni ishlanganlik darajasining muvofiqlik jihatlari bo'yicha umumiyl va qisman innavatsion loyhalar miqdori shuningdek pedagogik amaliyotda ulardan foydalanishning tahminiy umumiyl pedagogik innavatsiyalarga kiritish imkoniyatini beadi.

## **2.2. Boshlang‘ich sinflarning o‘quv faoliyatini integratsiyalash ta’lim samaradorligi omili sifatida.**

Biz integratsiyaning moxiyatini aniqlash jarayonida uning filosofik, pedagogik — psixologik va metodik asoslarini aniqlab oldik. Ma’lumki, o‘qitish va tarbiya jarayoni bir —biri bilan uzviy bog‘liq, lekin inson shaxsining shakllanishida tarbiya ustivor axamiyat kasb etadi. Chunki, tarbiya ta’lim jarayonining barcha majmuini o‘z ichiga oladi. Zamonaviy intelektual insonni tarbiyalashda integrativ ta’limning barcha jixatlari(aqliy, axloqiy, iqtisodiy, mexnat, estetik, gigienik, xuquqiy, jismoniy tarbiya)ni kamrab oladi va ularning o‘zaro bog‘likligini ta’minlaydi.

Integrativ ta’lim jarayonida o‘quvchi, olamning yaxlitligini, koinot, tabiat konunlarini, tabiat, jamiyat va insonlarning o‘zaro munosabatlari haqida xar tomonlama bilimlarga ega bo‘lib kamol topadi. Tabiat go‘zalligini xis qila olish, undan zavqlanish, e’zozlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.

Ta’limning globallashuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo‘llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta’lim muassasalari o‘quv jarayoni uchun tatbiqiy tus olishi lozim.

Fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o‘quv predmetlararo munosabatlarning murakkab jihatlarini to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishini ta’minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi.

O‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta’lim sifatiga kuchli ta’sir ko‘rsatib:

- ta’limni modernizatsiyalash, innovatsion o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi;

Fanlararo aloqadorlik ta’minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o‘qituvchi o‘quvchilarda o‘zining faniga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o‘zlashtirishga yordam beradi. Fanlararo

aloqadorlikni tizimli tarzda amalga oshirish natijasida o'quv tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi.

Maktabning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda dunyoga yaxlit, o'zaro aloqador bo'lган birlik sifatida qarashni, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko'ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat.

Ta'lim mazmunida inson va uning dunyoga bo'lган munosabati: "inson va tabiat", "inson va jamiyat", "inson va inson", "inson va texnika", "tabiat-inson-texnika-atrof-muhit" muammosi tobora markaziy o'rin egallamoqda.

Tabiatni o'rganuvchi fanlarni bir sinfda bir marta o'rganib bo'lmaydi. Uni bog'cha, maktab, tizimida uzlucksiz va uzviylik asosida o'rganmoq zarur.

Tabiiy fanlar ta'limi mazmuni inson va tabiat aloqadorligi atrofidagi muammolarni o'rganuvchi turli o'quv fanlariga oid bilimlar uzviyligi va integratsiyasini aks ettirmog'i lozim, bu esa tabiiy fanlarga oid bilimlarni sifat jihatdan yangi o'zgarishlarga olib keladi. Bu bilimlar o'ziga xos sintez, tabiiy fanlarga oid bilimlar va insonparvar yo'nalishlar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Ularning tafakkurning tizimli va ehtimolli uslubi sifatida tavsiflanishi tabiiy bilimlarning ajralib turadigan xususiyatlari sirasiga kiradi.

Aynan uzviylik asosida tashkil etilgan integratsiya biosferani ilmiy bilish, inson faoliyatini o'rganish, tinchlik uchun kurash bo'yicha global masalalarining yechimini topishda tabiiy fanlarning o'rnini samarali tarzda belgilab berish mumkin. Pirovard natijada, bu barcha maktab o'quv fanlaridagi maxsus bilimlar bilan umumiy-madaniy bilimlar o'rtasidagi o'zaro nisbatning uzviylik asosida o'zgarishiga (keyingilarining foydasiga) olib keladi.

Shu tariqa, uzviylik asosida tashkil etilgan integratsiya tabiiy fanlar ta'limi mazmunini insonparvarlashtirishning asosiy mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotlarimiz tabiatshunoslik ob'ektlarini «tabiat – fan – texnika – jamiyat – inson» uzviylik tizimida o'rganish tabiiy fanlar ta'limi mazmunini insonparvarlashtirishning yagona metodologik asosi bo'lib hisoblanishini ko'rsatib berdi.

Yangi didaktik tizimni ishlab chiqishda dunyoni yaxlit idrok etish, tizimli tafakkur va «tabiat – inson» tizimini aksiologik jihatdan baholash dastlabki ko‘zda tutilgan maqsad bo‘lib hisoblanadi. Bunday yondashuvda o‘qitishdagi ilmiylik tamoyili butunlay yangicha sifat kasb etadi.

Ilmiylik mezonlarida zamonaviy ilmiy uslubda fikrlashning bilimlar oldidagi shubhasiz ustunligi hisobga olinadi.

Tabiiy fanlar mazmunini insonparvarlashtirish konsepsiysi asosida integrativ yondashuvni amalga oshirish borasidagi tajribamiz natijalari 3-4-sinflar uchun «Tabiatshunoslik» kursi dasturining ishlanmasida nisbatan aniq taqdim etilgan.

«Tabiatshunoslik» kursi konsepsiyasini ishlab chiqishda biz zamonaviy, rivojlanayotgan jamiyatga o‘tish davrida o‘quvchilar dunyoqarashining real dunyodagi ob’ektiv munosabatlarni uzviylik asosida integratsiyalashgan tarzda aks ettiruvchi «inson – tabiat» tizimidagi o‘zaro aloqadorlik to‘g‘risidagi bilimlarga asoslangan bo‘lishi kerakligini hisobga oldik. Bunday yondashuv o‘quvchilarning zamonaviy jamiyatning ma’naviy timsollari ekologyaning qat’iy talabiga teran bog‘liq ekanini tushunishlariga olib keladi (tabiatdan ilmiy asoslangan tarzda foydalanishgina insoniyatning omon qolishini ta’minlab va uning kelgusi rivojlanish yo‘lini belgilab bera oladi xolos).

Bunda quydagilar yetakchi g‘oyalar hisoblanadi:

1. Tabiatning birligi, yaxlitligi va tizimli tarzda tashkil topganligi g‘oyasi.
2. Jonli mavjudotlar, jumladan inson tabiatni maxsuli.
3. Tabiat va insonning o‘zaro uzviy bog‘liqligi g‘oyasi.
4. Insonning koinotdagi burchi va tabiatdan ilmiy asoslangan tarzda foydalanishni anglash orqaligina «tabiat – inson» tizimini uyg‘unlashtirish mumkinligi g‘oyasi.

#### Kursning vazifalari:

- o‘quvchilarda dunyoning hozirgi tabiiy-ilmiy manzarasi kontekstida tizimli tafakkur ibtidosini rivojlantirish;
- o‘quvchilarda tabiat ob’ektlari va hodisalari, unda kechadigan jarayonlar

qonuniyatlari, tabiat birligi ta’limoti tizimidagi tabiat qonunlari to‘g‘risida bilimlarni shakllantirish;

- tabiatshunoslikda bilishning o‘ziga xos metodi sifatida o‘quvchilarning fenologik kuzatish qobiliyatini, tarkib toptirish; laboratoriya ishlarini bajarishda eksperimental ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish; kichik tadqiqot ishlarini o‘tkazish.
- o‘quvchilarda ekologik ta’lim-tarbiya asosi hamda zamonamizning global muammolari mohiyatini anglashning muhim bo‘g‘ini sifatidagi «tabiat – texnika – inson» munosabatlari tizimida aniq yo‘nalish beruvchi qat’iy ishonch tizimini hosil qilish;
- o‘quvchilarning erkin, mustaqil fikrlashi hamda muammolarni to‘g‘ri payqay olish, xulosa chiqarish va ularni hal etish yo‘lini topish layoqatini rivojlantirish; abstrakt tafakkur va bilimlarni umumlashtirish (tahlil, sintezlash, qiyoslash, analogiyasini topish, sabab-oqibatiga ko‘ra aloqalarini belgilash) malakalarini rivojlantirish;
- o‘quvchilarda tabiatni estetik idrok etishni rivojlantirish – ularni ma’naviy rivojlantirish vositasi va dunyoni anglash usullaridan biri sifatida;
- o‘quvchilarda ekologik tafakkur va tabiatga qadriyatli munosabatda bo‘lishning asosi sifatida insonparvar, ma’naviy timsollarni shakllantirish.

Ko‘p yillik tajriba va mavjud tadqiqotlar taxliliga suyangan holda shuni qayd qilish mumkinki, tabiatshunoslikka oid asosiy bilimlarni 3-4 sinfdan boshlash yaxshi natija beradi.

«Tabiatshunoslik» integrativ kursi o‘quvchilarda dunyoning hozirgi tabiiy-ilmiy ko‘rinishiga muvofiq keluvchi fikrlash uslubi (tizimli tafakkur)ni shakllantirishga yo‘naltirilgan, bu hozirgi dunyoning insonparvar yo‘l bilan hal etilishini kutayotgan dolzarb muammolarini anglab yetishga imkon yaratadi. Kurs tabiiy fanlar ta’limi mazmunini insonparvarlashtirish konsepsiysi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, u bilimlarni yagona metodologik negizda integratsiyalashni: tabiatshunoslik ob’ektlarini «tabiat – fan – texnika – jamiyat – inson» tizimida o‘rganish lozimligini asoslab beradi.

## **2-bob bo‘yicha xulosa**

Ta’lim-tarbiya jarayoni har bir o‘qituvchi va pedagogdan katta aql zakovat, sabr matonat, o‘quvchilarga va o‘z kasbiga yuksak mehr – muhabbatli bo‘lishni talab etadi. O‘qituvchining doimo izlanuvchan, bilim va tajribasini orttirib boruvchan bo‘lishi, o‘quvchilarni chuqur tushunish, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o‘sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi va zarur paytda so‘z, ish yoxud amaliy harakat bilan yordam bera olish qobiliyati ta’lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlovchi omillardir;

1. Ta’limning globallashuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo‘llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta’lim muassasalari o‘quv jarayoni uchun tatbiqiy tus olishi lozim.
2. Fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o‘quv predmetlararo munosabatlarning murakkab jihatlarini to‘liq o‘zlashtirilishini ta’minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borishini ta’minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrativ yaxlitlik vujudga keladi.
- 3.O‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta’lim sifatiga kuchli ta’sir ko‘rsatib:
- 4.Ta’limni modernizatsiyalash, innovatsion o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi;

### **III-BOB. Boshlang'ich sinf darslarini integratsiya va innovatsion tizimi bo'yicha metodik tavsiyalar.**

#### **3.1.Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan va innovatsion darslardan namunalar..**

Ta'limda moddiy baza, standart, o'quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o'zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib boruvchi o'qituvchining ijodkorligi, izlanuchanligi, malakasiga pedagogik mahoratiga bog'lanib qolaveradi, o'quv-biluv markazida esa o'quvchi turmog'ini taqozo etadi.

Har qanday ta'lim o'quvchi shaxsiga, uning qiziqish, xohish istagiga, htiyojiga qaratilmog'i kerak. Ya'ni ta'limni individuallashtirishga qaratmog'ini talab etadi.

- ✓ ta'lim jarayonini individuallashtirish shunday o'qitish usuliki, bunda har bir o'quvchi o'quv jarayonida faol ishtirok etib, o'quv-biluv jarayoniga shaxsiy xissa qo'shishi hisobga olinadi;
- ✓ ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchining uslubiy yondashuvi, tezkorligi, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi;
- ✓ o'quv-metodik, psixologik, pedagogik tashkiliy boshqaruv ishlarini olib borishda o'quvchi shaxsi o'quv-biluv markazida bo'ladi.

#### **Individuallahsgan ta'lim prinsiplari.**

- ✓ individuallashtirish – o'quv jarayonining bosh strategiyasidir.
- ✓ O'quv jarayonini individuallashtirish orqali – shaxsni rivojlantirish ta'minlanadi.
- ✓ Har bir o'quv predmetini o'qitishni individuallashtirish orqali amalga oshirish kutilgan natijani kafolatlaydi.
- ✓ O'qitish shakillarini individuallashtirish bilan integratsiyalash sharoiti yaratiladi.
- ✓ Individualashgan ta'lim-o'quv jarayoni sifat va samardorligni ta'minlaydi.
- ✓ Individualashgan ta'limda ko'nikma, malaka, bilim olish o'quvchining qiziqishi asosida kechadi.

✓ Mustaqil ishlay olish o‘quvchining umumo‘quv ko‘nikmasini rivojlantiriadi, taraqqiy ettiradi.

Demak individuallashgan ta’lim, ta’limning sifat va samardorligni belgilaydi.

O‘quv mazmunini o‘zlashtirishda, o‘quvchining mustaqil mutolaa bilan samarali shug‘ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan bog‘liq. Bu esa ta’limda interfaol metodlarnining qo‘llanishiga bog‘liq.

### **1-sinf uchun integratsiyalashgan usulda matematiki darsining ochiq dars ishlanmasi (matematika, o‘qish, atrofimizdagi olam)**

**Darsning mavzusi:** 1 dan 2 gacha bo‘lgan sonlar. 1 soni

**Darsning maqsadi:**

**O‘rgatuvchi maqsad:**

5. O‘quvchilarni 1 sonini yozishni o‘rgatish.
6. O‘quvchilarga raqam va son nimaligini o‘rgatish.

**Tarbiyaviy maqsad:**

Hayvonlarga yaxshi munosabatda bo‘lish.





**Rivojlantiruvchi maqsad:**

O‘quvchilarga sonlarning elementlarini yozishni o‘rgatish.

**Darsning jihozlanishi:** Rasm, tarqatma materiallar.

**Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil etish. Bolalarni darsga tayyorligini tekshirish.
2. Uy vazifasini tekshirish. Bolalar uy ishi daftaringizni oching. (o‘qituvchi har bir daftarga qarab chiqadi, eng yaxshi daftarni bolalar diqqatiga ko‘rsatadi). Endi daftarni partaning burchagiga qo‘ying.
3. O‘tgan drsni mustahkamlash. Og‘zaki hisob. Bolalar pannoga qarang, yuqori qismida qanday shakllar joylashgan.



3. Marhamat qilib to‘rtburchakni ta’riflab bering (4ta burchagi, 4ta tomoni bor).
4. Uchburchakni ta’riflab bering. ( 3ta burchagi, 3ta tomoni bor).
5. Aylana to‘g‘risida nima deyish mumkin? (burchak va tomoni yo‘q)
6. Oxiri qanday shakl, nomini aytin? (ko‘pburchak)
7. Uchburchak va to‘rtburchakning nima farqi bor?
8. Aylananing o‘ng tomonida qanday shakl? Chap tomonida-chi?
9. Ikkinchchi qatorda nima joylashgan?
- 10.Ular haqida nima deyish mumkin?
- 11.Jami qancha?
- 12.Keyingi qatorda nima bor?
- 13.Ularning soni to‘g‘risida nima deyish mumkin? ( 3ta yashil, qolgani sariq)
- 14.To‘rtinchchi qatorda nimalar bor?
- 15.Nechta tovuq, nechta g‘oz? (Necha juft)
- 16.Buvida 3ta jo‘ja bor edi, bittasi ketdi, nechtasi qoldi?
- 17.Oxirgi qatorda nimalar nimalar joylashgan? Nechta jo‘ja? (1) nechta olma?

18.Ularning soni to‘g‘risida nima aytish mumkin? (bir xil)

#### **4. Rasmlar ustida ishlash.** «Ko‘cha» rasmi.

O‘qituvchi:- Bolalar, bu rasmida nimalar bor ekan? (uylar, mashinalar, odamlar)

- Qaysi uy balandroq? Pastroq? Sariqning chap tomonidachi? Yashilning o‘ng tomonidachi?

- Mening qo‘limda nima? (daftar, kitob) Nima qalinroq? (kitob)
- Diqqat bilan atrofingizga qarang, nima sinfda bittadan?(doska)

**5. Kitob bilan ishlash.** Yangi mavzuni tushuntirish. –Bolalar, rasmga qarab aytin. 1 raqami nimaga o‘xshaydi? (ninaga). Endi bir raqami haqida she’r eshititing.

Ona Vatan yagona,

Kurramiz ham yagona  
Bittadandir har odam  
Yozishga ham o‘ng‘ayman,  
Chizg‘ichga o‘xshayman.  
O‘qituvchi bir necha marta bolalar bilan qaytaradi. 17-betdagি rasmga qaraymiz. Tepadagi qatordan boshlaymiz.

- Birinchi rasmda nima yozilgan? Ikkinchisida-chi? Uchinchisida-chi? Oxirisida- chi? Bir so‘z bilan shu rasmlarni aytingiz. (transport)
- Avtobusning chap tomonida nima bor? Vertolyotda-chi? Vertolyot bilan samolyot o‘rtasida nima bor?
- Nechtadan samolyot? Vertolyot-chi? Mototsikl-chi? (bittadan)
- Ikkinci rasmga qarang. Transportlarning tagida nima tasvirlangan? Kim qo‘g‘irchoqning chap tomonida? O‘ngida-chi? (quyonlar)
- Nechta avtobus? Nechta quyonlar?
- Pastdagi rasmda nima chizilgan?
- Ular nimalar? Bir so‘z bilan ta’riflang. (yovvoyi hayvonlar)
- Yovvoyi hayvonlarga qaysi hayvonlar kiradi?
- Ularni qaerda ko‘rishimiz mumkin?.

**6. Daftar bilan ishlash.** Bugun bizning darsimizga Bilmasvoy tashrif buyurdi. U bizdan rasmdagi hayvonlarni sanab berishni so‘radi. Qaysi raqamni bu rasmning tagiga yozish mumkin.

Men oldinda turaman,  
Chizg‘ichingga qarab boq.  
Tartib sonlar ichida,  
Birinchiman, hoy o‘rtoq.  
Daftaringizni ochib, qizil siyoh bilan yozilgan 1 raqamini bir katak tashlab yozing. Yozishni boshlaymiz.

1 1 1 1 1 1

Katakning o‘rtasidan boshlab, o‘ng tomonidagi burchakka yozib, to‘g‘ri tayoqchasini pastki chiziqning o‘rtasiga tushuramiz.

Bolalarga raqam bilan son farqi nimaligini tushuntirib berish. Raqamlarni yozamiz, sonlarni sanaymiz. Bolalar, Bilmashoy bizdan yordam so‘rab kelibdi.

Qomatini ko‘rganlar,

Qiyos etar oqqushga.

Mendan dir-dir titraydi,

Ixlosi yo‘q o‘kishga.

Doskada ikki raqamining yozilishini o‘qituvchi o‘rgatadi.

2 2 2 2 2 2

Ikki raqami o‘rtadan sal balandroq boshlanadi. Qo‘l uzmay yoziladi.

Yozish tushuntiriladi. O‘quvchilar katak tushlab yozadilar.

**7. Darsni yakunlash.** Bugungi darsda nima o‘tilganini eslatib o‘tish.

**8. Bolalarni baholash.**

**9. Uy vazifasini berish.**

O‘qitishning interaktiv usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-mod-diy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Quyida biz o‘qitishning interaktiv metodlari haqida tabiatshunoslik fani misolida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

4-sinf “Tabiatshunoslik” fani .

Mashg‘ulotning texnologik modeli

Mavzu	O‘lkamiz suv havzalari
<b>Mavzuning rejasi</b>	1.O‘lkamiz suv havzalari. 2.O‘lkamiz buloq va suv omborlari 3.O‘lkamiz daryolari.
<b>Maqsad</b>	<b>Ta’limiy:</b> O‘lkamiz suv havzalari haqida ma’lumot berish, buloq, daryo va suv omborlarining hozirgi holatini tahlil etish, insonlar hayotida suvning, amaliy ahamiyati va o‘rni haqida ma’lumotlar berish. <b>Tarbiyaviy:</b> Bolalarni guruh-guruh bo‘lib ishlashga o‘rgatish, suvga, tabiatga bo‘lgan mehrni oshirish, iqtisodiy va ekologik tarbiya berish.

	<b>Rivojlantiruvchi:</b> Ilmiy asoslangan axborotni o‘rganish va uni taxlil qilish. Ko‘nikmalarini rivojlantirish.
<b>O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</b>	<p><b>Metod:</b> Blis savol-javob, toifalash jadvali, og‘zaki bayon qilish, g‘uncha bog‘lam metodi, «Muammo» texnologiyasi</p> <p><b>Forma:</b> Aralash. (O‘quvchilar bilan savol- javob o‘tkazish, guruhlarda ishslash).</p> <p><b>Vosita</b> (jixozlar): Darslik; O‘zbekiston tabiiy xaritasi, tarkatma materiallar: matnlar, A-3 format qog‘oz, Rangli flamastir, skoch va boshqalar.</p> <p><b>Nazorat:</b> Og‘zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash.</p> <p><b>Baholash:</b> Rag‘batlantirish, 5 balli tizim asosida</p>
<b>Kutiladigan natijalar</b>	
<b>O‘qituvchi</b>	<b>O‘quvchi</b>
Mavzuni kisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishadi. O‘quvchilar faolligini oshiradi. O‘quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Bir vaqtning o‘zida ko‘pchilik O‘quvchilarni baholay oladi. O‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishadi	Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo‘lib ishslashni o‘rganadi. Nutq rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘rganadi. Qiska vaqt ichida ko‘p ma’lumotga ega bo‘ladi
<b>Kelgusi rejalar (tahlil, o‘zgarishlar)</b>	
Ilg‘or pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va tadbiq etish, takomillashtirish. O‘z ustida ishslash. Mavzuni hayotiy voqealar bilan boyitish, bog‘lash. Pedagogik mahoratni oshirish	Matn bilan mustaqil ishslashni o‘rganish. O‘z fikrini ravon bayon qila olish. Shu mavzu asosida ko‘sishma materiallar topish, ularni o‘rganish. O‘z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir echimga kelish malakasini hosil qilish.

## 1.DARSNING TASHKILIY QISMI:

- Salomlashish
- Davomatni aniqlash
- Sinf xonasi va o‘vvuchilarining darsga tayyorganligini tekshirish

## **2.DARS NOAN'ANAVIY BO'LGANLIGI UCHUN DARS HAQIDA**

### **TUSHUNTIRISH:**

#### **Darsning oltin qoidalari:**

- Yangilik;
- Izlanish;
- Vaqtga rivoya qilish;
- Hamrohlikda ishlash;
- Rag‘bat;
- Faollik;
- Do‘stona munosabat;

### **DARSNING BORISH**

**1.bosqich.** O‘quvchilarni darsga jalb qilish uchun mavzusi yuzasidan bils so‘rov metodi o‘tkaziladi.

**Bils so‘rov metodi o‘tkazish tartibi:** Ushbu usulda o‘kuvchilarni harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantikiy fikrlashga, o‘rganayotgai predmeti asosida xilma-xil fikrlar, ma’lumotlar ichidan kerayushgini tanlab olishni. Shu bilan bir qatorda, o‘zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o‘z fikrini o‘tkaza olish hamda o‘z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o‘rgatishga qaratilgan. Berilgan topshiriqlar bo‘yicha o‘quvchilarga mavzu yuzasidan umumiyl savollar beriladi.

- 1.Suv havzalari deb nimaga aytildi?
2. Suv havzalarining turlari ?
- 3.Suv havzalarining foydali hususiyatlari nimada deb o‘ylaysiz?
- 4.Suv havzalarining manbalari deganda nimani tushunasiz?
5. Siz haritadan suv havzalari qanday tasvirlanganligni ko‘rsating?

**2.bosqich.** O‘quvchilarda suv havzalarining xususiyatini bilish va farqlash bo‘yicha “Toifalash jadvali” trengi o‘tkaziladi.

**Toifalash sharhini tuzish qoidasi:** Toifa-xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi (umumiyl) malumot.

Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi.

Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

1. Toifalar bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.

2. Bitta mini-guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.

3. Ta'lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan toifalarni berish mumkin emas bu ularning mustaqil tanlovi bo'ladi.

### *Misol (namuna)*

### Toifalash jadvali

Suv havzalari		
Buloq	Suv ombori	Daryo
Buloq - yer ostidan sizib chiqadigan suv. Ko'mishi ba'zan sokin, yoki favvoradek otilib chiqadi. Shifobaxsh mineral suv buloqlar ham bor.	Suv omborlar- insonlar tomonidan yaratilgan suv sun'iy suv havzalaridir. Daryo suvlarini tartibga solish, yozda sug'orish, bahor, kuz va qishda suvlarni to'plash uchun qurilgan.	Daryo bu – buloq suvning bir tomonga oqishida jilg'alar irmoqlar bir-biriga qo'shilib katta suv oqimini hosil qilib yuqoridan pastga oqadigan yirik suv oqimidir. Daryo insonlar hayotida muhim ahamiyatga ega tabbiy manbadir.

**3.bosqich.** O'quvchilarning bilimini yanada musahkamlash uchun "suv havzalari" turlari bo'yicha klaster (g'uncha bog'lam) metodini bajarish topshirig'i beriladi.


**Klaster tuzish qoidasi.** (Klaster-tutam,bog'lam) Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalg qilishga yordam beradi

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.

2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.

3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to‘xtatmang. Agarda aqlingizda g‘oyalar kelishi birdan to‘xtasa, u holda qachonki yangi g‘oyalar kelmaguncha qog‘ozga rasm chizib turin

### ***Misol (namuna) Klaster***



Yuqoridagi berilgan interfaol metodlarni o‘quvchilar bajargandan keyin, o‘qituvchi o‘lkamiz suv havzalari haqida umumiyligi ma’lumotni og‘zaki bayon qiladi.

Mavzu yuzasidan o‘quvchilarda malaka hosil qilish uchun “suvsizlik muammosi” mavzusida «**Muammo**» texnologiyasi bajarishni o‘quvchilarga taqdim etadi.

**Mashgulotni o‘tkazish tartibi:** O‘qituvchi o‘quvchilarni guruxlarga ajratib, ularni mos o‘rinlariga joylashtirgandan so‘ng, mashg‘ulotni o‘tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi, ya’ni u mashg‘ulotni bosqichli bo‘lishini va har bir bosqich o‘kuvchilardan maksimum diqqat-e’tibor talab kilishini, mashg‘ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo‘lib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat o‘kuvchilarga berilgan topshiriklarni bajarishga tayyor bo‘lishlariga yordam beradi va bajarishga qiziqish uyg‘otadi.

• o‘kuvchilar tomonidan mashg‘ulot uchun tayyorlangsh kinolavhani dikkat bilan tomosha kilib, unda yoritilgan muammoni aniqlashga harakat qilish, xotirada saqlab qolish yoki daftarlariiga belgilab ko‘yish (agar kinofilm ko‘rsatishning imkoniyati bo‘lmasa, u holda o‘kituvchi o‘kuv predmetining mavzusi bo‘yicha plakat, rasm, afisha yoki biro muammo bayon qilingan matn, kitobdagi o‘quv materialidan foydalanishi mumkin);

• har bir guruh a’zolari tomonidan ushbu lavhadan (rasmdan, matndan hayotiy voqeadan) birgalikda anikdangan muammolarni vatman yoki A-4 formatdagi qog‘ozga flomaster bilan yozib chikadi;

• berilgan aniq vaqt tugagach, tayyorlaigan ishni guruh vakili tomonidan o‘qib eshittiriladi;

• o‘qituvchi guruxdar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog‘ozlarni almashtirgan holda guruhlarga tarqatiladi;

• tarqatilgan kog‘ozlarda guruhlar tomonidan yozilgai muammolardan har bir guruh a’zosi o‘zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi; o‘kituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir gurux a’zosi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi.

### ***Misol (namuna) «Muammo» texnologiyasi***

Muammo	Yuzaga kelish sababi	Salbiy oqibatlar	Hal etish yo‘llari	Shaxsan men nima qilshim mumkin?
Suvsizlik	Toza ichimlk suvidan tarbibsiz foydalanish, korxonalarining ko‘payshi va boshqalar.	Suvsizlik muammosi kasalliklarning ortishi va boshqalar	Tejamkorlik bilan foydalanish suvganisbatan befarq bo‘lmaslik va boshqalar	Suv jumraklarini xardoim yopman, bekorga ifloslantirmayman va boshqalar

### **UYGA VAZIFA**

Tabiatshunoslik daftaringizga: O‘zbekiston tabbiy xaritasidan qanday daryo buloq va suv omborlar borligni aniqlang va ularning hajmi umumiyl xolatini yozing.

## Umumiy xulosa.

Adabiyotlarni tahlil qilish va tajribalarni o‘rganish asosida o‘quv kuni integratsiyasining uchta modelini ajratish mumkin. Birinchi modelning mohiyati shundan iboratki, bir kunning o‘zida umumiy kompleks muammoni hal qilish orqali birlashgan, darslararo aloqalari mavjud bo‘lgan bir necha dars o‘tkaziladi. O‘quv kunining bunday tashkil qilinishi o‘quvchilar bilimining sintezlanishiga, turli fan o‘qituvchilari harakatining o‘quvchilar bilimini shakllantirishdagi birlashuviga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning darslarga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida hamkorlik qilishlari natijasida ta’minlanadi. Integrallashgan kun boshqa modelining o‘ziga xos xususiyati shundaki, o‘quv kuni davomida nazariya va amaliyat birga qo‘shib o‘qitiladi. Bunda birinchi navbatda 6 soatlik bitta mashg‘ulot davomida maxsus texnologiya va ishlab chiqarish ta’limining birgalikda qo‘shib olib borilishi haqida so‘z yuritilmoqda. Bunday ta’lim shaklining boshqacha nomi binar darsdir. O‘quv kuni integratsiyasining uchinchi modeli “sho‘ng‘ish” (“konsentratsiya”) deb ataladi. Bunga ko‘ra, bir o‘quv kunida bittadan uchtagacha fan o‘qitiladi. Bu esa bitta fan bo‘yicha qatorasiga bir necha dars o‘tilishi hisobiga erishiladi. O‘quvchilarning o‘rganilayotgan materialning nisbatan tugallangan yaxlit bloklarini chuqur va mustahkam o‘zlashtirishlari ta’minlanadi. O‘quvchilarni faoliyatning turli-tuman ko‘rinish va shakllariga jalb qilishga, faoliyatni tashkil etishning frontal, guruh va individual shakllarini maqbul tarzda birga qo‘shib olib borish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Pedagog va o‘quvchilarning birgalikda ijod qilishlariga keng imkoniyatlar yaratiladi, o‘quv jarayonida hamkorlik, o‘zaro yordam, ta’limning insonparvarlashuvi namoyon bo‘ladi. Pedagog ta’limni tashkil etishning, komplekslashtirishning turli-tuman shakllaridan, ularni o‘quv kuni doirasida o‘quv jarayonida o‘quvchilar faolligini ta’minlaydigan va qo‘llab-quvvatlab turadigan shakllarga (masalan, guruhlarda dars-suhbat-ma’ruza-mustaqlil ish) integratsiya qilish imkoniga ega bo‘ladi. O‘quvchilarni majburlab o‘qitish yo‘qoladi.

Ta’limni haqiqiy differensiatsiyalash, o‘quvchilarning yosh, aqliy, jismoniy xususiyatlarini hisobga olish uchun shart-sharoitlar yuzaga keladi.

Darslarda ko’proq ularni qiziqtirish uchun innovastion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko’ramiz. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o‘quvchilarning faolligini oshirishga mo’ljallangan o‘quvchilarni boshqarish fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o’zgalar manfaati bilan hisoblashish, ularga o’rgatish, ta’sir qila olish, o’zining va boshqalarning “men”ligini sezish, his qilish, o’zini boshqarish fikrini aniq, lo’nda va puxta bayon eta olishga o’rgatishdan iboratdir. Ayniqsa, biz yuqorida ko’zda tutgan o’qish darsida innovastion texnologiyalardan foydalanamiz. O’qitish nutqiy, aqliy, fikriy holatlarni rivojlantirish, ularda bilim, ko’nikma, kategoriyalarni tez shakllanadi.

### **Tavsiyalar:**

- boshlang‘ich ta’lim fanlari mazmuni intgratsion o‘qtish orqali takomillashtirsh;
- o‘quvchilarda bilim olishni shakllanganlik darajalari hamda ma’naviy shakllanib borish monitoringini yaratish.
- o‘qituvchilar tomonidan berilayotgan bilimning o‘quvchilar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilayotganligini doimiy nazorat qilib borish;
- boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsi ma’naviyatini shakllantirishda uzviylik va uzlusizlikni ta’minalash;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda integratsiyalashgan darslarni shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar tashkil etish;
- ta’lim jarayonini individuallashtirish shunday o‘qitish usuliki, bunda har bir o‘quvchi o‘quv jarayonida faol ishtirokni taminlash;

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonman. Fidokor 2000 y.
2. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T.: O‘zbekiston, 1996. - 380 b.
3. I.A.Karimov “O‘zbekiston mustaqillika erishish ostonasida”T.: O‘zbekiston 2011-y
4. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin». Tafakkur jurnali bosh muharriri savollariga javoblari. 1998 y. 2 s.
5. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolatlari.T.:Sharq, 1993-y.30 b.
6. Karimov I.A. «Barkamol avlod orzusi» - T.; sharq nashriyoti1997 y.
7. Abdullaeva Q.A., Safarova R.G‘., Bikbaeva N.U, Baxramov. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. Boshlang‘ich ta’lim jurnali №6 2010-y.
8. Abdullaeva Q.A, Safarova R.g‘, Bikbaeva N.U, Baxramov.
9. Boshlang‘ich ta’lim Konsepsiysi. Boshlang‘ich ta’lim jurnali № 6-1998 y.
10. Abdullaeva q. Ochilov M., K.Nazarov, S.Fuzailov, N.Bikbaeva «Boshlang‘ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari. T.: 1999.
- 11.Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferati. T.: 2003-y.
- 12.Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993 y. – 224 b. 184-185 betlar.
13. Azizzxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. Toshkent TDPU. 2003 yil. 174 6. 92-bet.
14. Azizzxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (O‘quv qo‘llanma). – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006 y. – 160 b. 64-67 betlar.
- 15.R.A.Mavlonova, N.Raxmonqulova “Boshlang‘ich ta’limnining integratsiyalashgan pedagogikasi” T.: Ili-Ziyo 2009 y.

- 16.R.A.Mavlonova N.Raxmonqulova "Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi innovatsiyasi va integratsiyasi. T.: G‘.G‘ulom 2013 y
- 17.Shodmonova Sh.S., Mirsagatova N.S., Ibragimova G.N., Mirsolieva M.T. Pedagogik texnologiyalar (metodik qo‘llanma). –T.: “Fan va texnologiya”, 2011 y. 140 b. 24-33 betlar.
18. G‘oziev E. "Mustaqil fikrlashning taraqqiyotga ta’siri". Ma’rifat gazetasi. 2000 yil. 14-bet.

#### **Internet ma’lumotlari**

19. <http://www.pedagog.uz>.
20. <http://www.ziyonet.uz>.